

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA FAKUL'TETI

TASVIRIY SAN'AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI KAFEDRASI

“Himoyaga tavsiya etilsin”

Pedagogika fakul'teti

dekani: _____ dots. Sh. Nurullayeva.

“ _____ ” _____ 2016 yil

BO'RIYEV SODIQ SOBIROVICHNING

5110800 — Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishi
bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun

“TASVIRIY SAN'AT ASARLARINI BADIY TAHLIL QILISHDA ZAMONAVIY
PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH (KASB-HUNAR
KOLLEJLARI MISOLIDA)”

mavzusida yozgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

o'q. B. Qorjovov

QARSHI – 2016

MUNDARIJA

kirish.....	6
I BOB. KASB-HUNAR KOLLEJLARIDA TASVIRIY SAN'ATNI O'QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNALOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	13
I.1. Kasb-hunar kollejlarda tasviriy san'at darslarida asarlarini badiiy tahlil qilishga o'rgatilishining zamonaviy pedagogik texnologiyalaridan foydalanish muammo sifatida.....	13
I.2. Tasviriy san'at asarlarini badiiy tahlil qilishga o'rgatishda zamonaviy pedagogik texnologiyalaridan foydalanishning falsafiy asoslari.....	21
II BOB. KASB-HUNAR KOLLEJLARIDA TASVIRIY SAN'AT ASARLARINI BADIY TAHLIL QILISHGA O'RGATISHNING MAZMUNI, SHAKLI, VOSITALARI VA METODIKASI.....	40
II.1. Tasviriy san'at asarlarini badiiy tahlil qilishga o'rgatishning mazmuni, shakli, vositalari va metodikasi.....	40
II.2. Darslarda Tasviriy san'at asarlarini badiiy tahlil qilishga o'rgatishning psixologik asoslari.....	46
III BOB. DARSLARNI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA TASVIRIY SAN'AT ASARLARINI BADIY TAHLIL QILISHGA O'RGATISH BO'YICHA TAJRIBA SINOV ISHLARI.....	63
III.1. Mavzuga oid tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va o'tkazish metodikasi.....	63
III. 2. Tajriba-sinov ishlarining natijasi va ularning tahlili.....	66
Xulosalar.....	68
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	69
Ilovalar.....	71

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. O‘zbekistonning mustaqil taraqqiyoti yillarida shu narsa aniq isbotini topdiki, ozod va faravon hayotni barpo etishning asosiy omillaridan biri barqarorlikdir. So‘ngi yillarda jahon hamjamiyatida barqaror rivojlanish konsepsiyasi keng ommoviylashmoqda, Xususan, BMT xujjatlarida ham barqaror taraqqiyot oliy qadriyat sifatida talqin qilinishi barobarida uning universal xususiyatlari, turli modellarning kuchli va zaif tomonlarini taxlil etadi. O‘z o‘rnida aytib o‘tish joizki, "barqarorlik" tushunchasi ko‘plab yondashuvlarni o‘ziga jamlagan.

Prezident Islom Karimov "Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash-mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muxum sharti" mavzusidagi xalqaro konferensiyasining ochilish marosimida so‘zlagan nutqida "Milliy va umumbashariy qadriyatlar uyg‘unligi zaruratini" teran anglaydigan, zamonaviy bilimlarni, intellektual salohiyat va ilg‘or texnologiyalarni egallagan insonlargina o‘z oldimizga qo‘ygan strategik taraqqiyot mahsullariga erishish mumkin"ligini alohida takitlab o‘tdi. "Yurtboshimizning ushbu fikrlari mamlakatimizda amalga oshirilib kelinayotgan davlat siyosatining mazmun-mohiyatini yorqin ifodalash bilan ta’lim tizimining yuuqori bosqichiga ko‘tarish, har tomonlama barkamol shaxsni tarbiyalash, ilg‘or pedagogik texnologiyalar hamda o‘qitish shakillarini joriy etish, o‘qituvchi kadrlarni tyorlash va ularning faoliyatini tashkil etish kabi bir qator vazifalarni belgilab berdi. Albatda ushbu vazifalar, birinchi navbatda yuksak salohiyatli avlodni tarbiyalashga, ularning jahon andozalariga mos sharoitda bilim olishini, jismoniy va manaviy jihatdan yetuk insonlar bo‘lib ulg‘ayishini ta’minlash, qobilyat va iqtidaroni intellektual salohiyatini yuzaga chiqarish, qalbida ona yurtga sadoqat va fidoyilik tuyg‘ularini shakillantirishni taqazo etadi. Bu esa barkamol, yetuk shaxslarni tarbiyalash, jamiyatimizga kerakli kadrlar tayorlashni davr talabi darajasiga ko‘tarish, ta’limni bozor iqtisodiyoti munosabatlariga asoslangan mexanizmini yaratish, uning mazmunini yanada takomillashtirish oliy talimlarida talaba va o‘qituvchilarning ta’lim-tarbiya jarayonida yangicha munosabatlarni, qarashlarni shakillantirish kabi masalalarni qamrab oladi, bu esa ta’limni barqarorlashtirishning asosini tashkil etada. Demak, bugungi kunda ta’lim

jarayonida o'qituvchi va talabalar o'rtasida hamjihatlik vaziyatini, ijtimoiy kelishuvni uyg'unlikni tashkil etish va uning asosida har bir shaxsning qiziqishini shakillantirish, texnologiyasini yaratish dolzarb muammolar hisoblanadi.

Bugungi kunda barkamol shaxsni tarbiyalash, respublikamizda kadrlar tayorlash tizimini zamonaviy texnologiyalar asosida uzliksizligini taminlash, uning mazmunini takomillashtirish, ota-onalar, talaba va o'qituvchilarda ta'lim va tarbiya jarayoniga bo'lgan munosabatlar barqarorlik asosida "Kadrlar tayorlash milliy dasturi"ga binaon bosqichma – bosqich amalga oshirilmoqda. Ushbu dasturning "Uzliksiz talimni tashkil etish va rivojlantirish prinsiplar" qismida "ta'limning ijtimoiylashuvi – talimoluvchilar estetik boy dunyoqarashni hosil qilish, ularda yuksak ma'naviy va ijodiy fikirlashni shakillantirish" zarurati alhida qayt qilindi."

O'zbekiston Respublikasining Hamma jabhalarida islahotlar amalga oshirilmoqda. Bu masalani Respublikamizning Prezidenti, akademik I.Karimov davlatimizning ustivor yo'nalishlaridan biri deb hisoblaydi. Chunki 1997 yil 29 avgustda "Talim to'g'risida"gi qonun hamda "Kadrlar tayorlash milliy dasturi" qabul qilinib uning qarorlari amaliyotga tadbiiq etildi. Shunday vazifalarning izchillik bilan amalga oshirilayotganligi kadrlar masalasidagi muammolarni ham bartaraf etishga yo'l ochmoqda. Prezident I.Karimov O'zbekiston Respublikasi oliy majlisining ikkinchi chaqiriq birinchi sessiyasida aytganidek "Oldimizga qo'ygan ezgu maqsadlarimiz bilan uzviy bog'langan bugungi kundagi yana bir dolzarb masala kadrlar tayorlash milliy dasturini amalga oshirish, bu borada boshlangan ishlarni izchil davom ettirish va kuchaytirish bundan keyin ham biz uchun ustivor vazifa bo'lib qoladi". Kasb hunar ta'limining hozirgi ruvoijlanib borayotgan bosqichida kadrlar tayorlash masalasi va ularning sifat ko'rsatkichlari dolzarb masala bo'lib turmoqda.

Shu o'rinda oliy ta'lim tizimida tizimli barcha fanlar qatori tasviriy san'at ta'limi bo'yicha ham davlat standartlari joriy etildi. Davlat ta'lim standartlarni ishlab chiqishlari avvalo yurtimizning jahon hamjamiyatidagi rivojlangan mamlakatlar qatoriga kirib borishidagi dadil qadamlaridan biri bo'ldi.

Malumki Kasb-hunar kollejlari mutaxassis tayorlash yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lsada hali jahon standartlari talablariga javob bera olmaydi. Chunki Kasb-hunar

kollejlarda tasviriy san'atni o'qitishni davr talabi darajasiga ko'tarish uchun rasm chizishga o'rgatish bilan birga asarlarini badiiy tahlil qilishning samarali usul va metodlarini ishlab chiqish va ularni amaliyotga qo'llash zarurdir. Shuning uchun Kasb-hunar kollejlarda tasviriy san'at asarlarini badiiy tahlil qilishda innovatsion pedagogik texnologiyalaridan foydalanishning samarali usul metodikasini ishlab chiqish hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

-tasviriy san'at asarlarini badiiy tahlil qilishning pedagogik texnologiyalaridan foydalanish yetarli darajada o'rganilmagan;

-Kasb-hunar kollejlarda tasviriy san'at darslarida asarlarni badiiy tahlil qilishga o'rgatishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish modeli ishlab chiqilmagan;

Tadqiqotning maqsadi. Kasb-hunar kollejlarda tasviriy san'at darslarida asarlarni badiiy tahlil qilishning samarali usul va zamonaviy pedagogik texnologiyalarini ishlab chiqish hamda uni ilmiy jihatdan asoslash.

Tadqiqot obekti. Kasb-hunar kollejlarda tasviriy san'atni o'qitish metodikasi darslarini jarayoni.

Tadqiqot predmeti. Tasviriy san'atni o'qitish metodikasi fanini o'qitishning mazmuni, shakl va vositalari metodikasi,.

Kutilayotgan ilmiy yangiliklar:

1. Kasb-hunar kollejlarda tasviriy san'at darslarida asarlarni badiiy tahlil qilishga o'rgatishda zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish pedagogik muammo ekanligini o'rganish.

2. Tasviriy san'at asarlarini badiiy tahlil qilishga o'rgatishda zamonaviy pedagogik texnologiyalaridan foydalanish tizimini ishlab chiqish.

3. Tasviriy san'at darslarida asarlarni badiiy tahlil qilish metodika, va zamonaviy texnologiyalaridan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlarini ishlab chiqish.

4. Tasviriy san'at asarlarini badiiy tahlil qilish metodikasi va zamonaviy texnologiyalaridan foydalanishga oid metodik tavsiyalar yaratish.

Tadqiqotning ilmiy farazi shundan iboratki, tasviriy san'atni o'qitish metodikasi fanining zamonaviy pedagogik texnologiyalaridan foydalanish samara beradi.

Agarda:

- Kasb-hunar kollejlarda talabalarga tasviriy san'atni o'qitish metodikasi faning zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish yaxlit pedagogik tizim sifatida o'rgatilsa;

-Talabalarning psixologik tomonlarini qonuniyatlari va qobiliyatlariga mos holda o'rganilsa;

-Talabalarga tasviriy san'at darslarida asarlarni badiiy tahlil qilishga o'rgatishning zamonaviy pedagogic texnologiyalardan foydalanishning pedagogik-psixologik va metodik tomonlari ishlab chiqilsa;

-Tasviriy san'at darslarida asarlarni badiiy tahlil qilishga o'rgatishning zamonaviy pedagogik texnologiyalaridan foydalanish yuzasidan pedagogik tajriba-sinov ishlarini o'tkazilsa, olingan natijalar asosida ilmiy metodik tavsiyalar, o'quv metodik qo'llanmasini tayorlash hamda ularni amaliyotga tadbiiq etish mexanizimlarini ishlab chiqish.

Тадқиқот вазифалари:

1. Kasb-hunar kollejlarda tasviriy san'at darslarida asarlarni badiiy tahlil qilishga o'rgatishning zamonaviy pedagogik texnologiyalari dolzarb muammo ekanligini asoslash.

2. Kasb-hunar kollejlarda tasviriy san'at darslarida asarlarni badiiy tahlil qilish movzusini o'rgatishning pedagogik texnologiyalari ishlab chiqsh.

3. Tasviriy san'at darslarida asarlarni badiiy tahlil qilishga o'rgatishda pedagogik texnologiyalaridan foydalanishni tizimini ishlab chiqsh.

4. Tadqiqot natijalari asoida, talabalarga tasviriy san'at darslarida asarlarni badiiy tahlil qilishga o'rgatishning pedagogik texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha, ilmiy-pedagogik va metodik tavsiyalar ishlab chiqish hamda ularni o'quv jarayoniga tavsiya etish.

Tadqiqotning metodik asosi. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni "Kadrlar tayorlash milliy dasturi", Davlat ta'lim standartlari, "2004-2009 yillarda

maktab ta'limini rivojlantirish davlat umum milliy dasturi", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ma'naviyat va madaniyatni rivojlantirish to'g'risidagi qaror va farmoyishlari "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asari, "Barkamol avlod yili" Davlat dasturi, sog'lom avlodni tarbiyalashga doir pedagogik va psixologik g'oyalar, nazariyalar ishlanmalar, kasb tanlashga yo'naltirilgan pedagogik va psixologik tavsiyalar.

Tadqiqot metodlari:

a) muammoga oid ilmiy manbalarni o'rganish, pedagoglar, psixologlar va sotsiologlarning tadqiqotlarini o'quv va metodologik adabiyotlar hamda bitiru malakaviy ishlarini tahlil qilish;

b) tasviriy san'atni o'qitish metodikasi fanida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni amaliyotdagi ahvolini o'rganish;

v) tasviriy san'at asarlarini badiiy tahlil qilish darslarida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish orqali samaradorlikni aniqlashga qaratilgan anketa so'rovnomasi;

d) Tasviriy san'at o'qitish metodikasi fanini o'qitish jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish suxbatlar o'tkazish;

Tadqiqotni amalga oshirish bosqichlari:

Birinchi bosqich (2014-2015 yillar)da tasviriy san'at darslarida asarlarni badiiy tahlil qilishga o'rgatishning pedagogik texnologiyalardan foydalanish axvoli o'rganildi. Tasviriy san'atni o'qitish metodikasi fanini darslari, fan o'qituvchilari va talabalar bilan suxbatlar, uchrashuvlar anketa so'rovlari o'tkazildi. Respublikamizning ko'zga ko'ringan olimlar, pedagoglar, psixologlar fizoloklar, sotsiologlar va rahbarlar bilan fikirlashildi, bir necha shahar va tumanlarda kasb-hunar kollejlari o'quvchilar o'rganildi hamda tajriba sinov maydonchasi sifatida aniqlab olindi. Yangi dasturlar loyihasi va uslubiy qo'llanma ishlab chiqildi, amalda qo'llanildi turli xil anketa so'rovnomalari, darslarda asarlarni badiiy tahlil qilishning pedagogik texnologiyalardan foydalanish yo'llari ishlab chiqildi. Kasb-hunar kollejlari o'rganilib, taqqoslanib, tegishli xulosalar qilindi.

Ikkinchi bosqich. (2015-2016 yillar) tajriba sinov ishlari yakunlandi, bunda kasb-hunar kollejlarda tasviriy san'at o'qitish metodikasi fanini zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish dastur loyixasi natija sifatida o'rganildi, ishlab chiqilgan uslubiy tavsiyada mezonlar ishlab chiqildi. Tadqiqot ishlarini jamlash, olingan natijalar umumlashtirildi va tahlil etildi xulosalar hamda takliflar berildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

- tasviriy san'at darslarida asarlarni badiiy tahlil qilishga o'rgatishda zamonaviy pedagogik texnologiyalaridan foydalanish muammo ekanligi asoslandi;
- tasviriy san'at darslarida asarlarni badiiy tahlil qilishga o'rgatishda zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish tizimini ishlab chiqish;
- darslarda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning nazariy va amaliy tomonlari asoslandi;
- tasviriy san'at darslarida asarlarni badiiy tahlil qilishga o'rgatishning zamonaviy texnologiyalardan foydalalishga oid metodik tavsiyalar yaratish.

Tadqiqotning tajriba-sinov maydoni.

Qarshi shahri Qarshi davlat universiteti, Qarshi Pedagogika kolleji, Qarshi san'at kollejlarida tajriba sinov ishlari olib borildi.

Tadqiqot natijalarining muhakomalari: Tadqiqot natijalari va muhokomalari Qarshi davlat universiteti, Qarshi Pedagogika kolleji, Qarshi san'at kollejlarida muhokama qilingan. Talaba o'zining ilmiy qarashlari yuzasidan (2015-2016 yil)lar davomida ilmiy maruzalari bilan erishgan ijobiy natijalari bir qator maktab va kollejlarda joriy etildi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati. Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar, dasturlar hamda bir qancha dars ishlanmalari, tajribali o'qituvchi va olimlarning darslari o'rganildi. Tayorlangan metodik elektron ko'rgazmali qurollar majmualari tavsiyalar, tasviriy san'at o'qituvchilarining faoliyatini yanada muofiqlashtirishga xizmat qiladi.

Ximoyaga olib chiqilgan holatlar:

1. O'qituvchilarni darslarda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari.

2. Ilmiy muammoning nazariyadagi va amaliyotdagi mavjud axvolini tahlili.
3. tasviriy san'at darslarida asarlarni badiiy tahlil qilishning zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishni samarali yo'llari va uslublari.
4. Pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanishni uslubiy qo'llanmalarning imkoniyatlari.
5. Tasviriy san'atni o'qitish metodikasi darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishiga xizmat qiladigan tavsiyalar.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyalari. Tasviriy san'at darslarida asarlarni badiiy tahlil qilishga o'rgatishda pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ilmiy asoslari bo'yicha Qarshi davlat universiteti "zamonaviy pedagogik texnologiyalari muammolariga bag'ishlangan ilmiy amaliy konfrensiyalarida" maqolarida o'z aksini topgan. Shuningdek, kasb-hunar kollejarining tasviriy san'at darslarida "tasviriy san'at asarlarini badiiy tahlil qilishga o'rgatishning zamonaviy pedagogik texnologiyalari", "Kasb tanlash" va "zamonaviy pedagogic texnologiyalar" bo'yicha o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari Qarshi shaharlaridagi pedagogila oliy o'quv yurti kasb-hunar kollejarida o'tkazilgan tadbirlar, kuzatishlar amaliyotga joriy qilindi. (Qarshi 2015 2016 yillar), kasb hunar kollejarida nafis san'at maktablarida, Tadqiqot tavsiyanomalarida oliy o'quv yurtlarining seminar kengashlarida amaliyotga tadbiriq qilingan.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzulishi: Kirish, uchta bob, sakkizta bo'lim, yakuniy xulosa va tavsiyalar, adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib 70 betni tashkil etadi.

I. BOB. KASB-HUNAR KOLLEJLARIDA TASVIRIY SAN'ATNI O'QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNALOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI.

I.1. Kasb-hunar kollejlarida tasviriy san'at darslarida asarlarini badiiy tahlil qilishga o'rgatilishining zamonaviy pedagogik texnologiyalaridan foydalanish muammo sifatida.

Ilmiy-texnik taraqqiyot nafaqat aksariyat ishlab chiqarish sohasinigina texnologiyalashtiradi, balki u madaniyat, ta'lim sohalariga ham kirib bormoqda. Bugungi kunda informatsion axborot, tibbiyot, ta'lim va boshqa texnologiyalar to'g'risida fikr yuritish mumkin.

Texnologiyazatsiyalash – bu ob'ektiv jarayon bo'lib, ta'lim evolyusiyasining yangi vazifalarini sifatli hal qilish uchun tayyorgarlik davri.

Texnologiya grekcha so'z bo'lib, texnos-san'at, mahorat, logos-ta'limot degan ma'nolarni bildiradi.

Pedagogik texnologiya pedagogning talabalarga ta'sir qilishni tashkil etish bo'yicha kasbiy ahamiyatga molik malakalar tizimini aniqlab beradi, pedagogik faoliyatning texnologikligini anglash usullarini taklif etadi.

Hozirgi davr ta'lim texnologiyalari muammosi, pedagogik innovatsiya tajribalari ularni bir tizimga tushirish va aniqlashtirishni talab qiladi. Oliy maktab oldida pedagogik texnologiyalarning ilmiy asoslari, ularning tasnifi, mohiyatini ochib berish va o'quv jarayonining texnologikligi muammolarini ta'minlash masalasi turibdi.

Pedagogikaga oid adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, hozirgi davrda pedagogik texnologiya tushunchasi ta'lim amaliyoti va nazariyasi ilmdan mustahkam o'rin egalladi, lekin uni pedagogikaning mukammal lug'atlari (tezaurus)dagi o'rni hali noma'lumligicha qolmoqda.

N.F.Talzina har bir pedagog real pedagogik jarayonni tashkil etishdan oldin o'quv jarayoni haqida texnologik darajada bilimlar tizimini bilib olgan bo'lishi shart deb hisoblaydi. U fan va amaliyot oralig'ida tamoyillarni olg'a suruvchi, metodlar ishlab chiquvchi, ularni izchil qo'llash kabi masalalar bilan shug'ullanuvchi alohida

fan bo'lishi kerak, deb hisoblaydi, ularsiz pedagogik jarayon asoslanmay qoladi (texnologiya real o'qitish jarayoni sifatida).

Ayrim mualliflar o'qitish texnologiyalariga fan va san'at oralig'idagi fan deb qaraydilar, boshqalari uni loyihalash bilan bog'laydilar.

Shunday qilib, bir yondashuvda o'qitish texnologiyalari o'qitishning barcha vositalarini qamrab olgan qandaydir jihozlash sifatida ham belgilanadi. Unda texnologiya o'quv jarayonini texniklashtirishni taqozo qiladi.

Boshqa yondashuvda texnologiyaga ta'lim amaliyotini yangi yoki zamonaviylashtirilgan bilimlar bilan ta'minlashning usuli sifatida qarashga imkoniyat beradi. Bunda texnologiyaga ta'limning ilmiy tamoyillari va amaliyotini tatbiq etish sifatida qaraladi.

Pedagogik texnologiya mohiyatini yoritish uchun pedagog-didaktikachilar tomonidan berilgan ta'riflarga to'xtalishni maqsadga muvofiq deb topamiz.

«Pedagogik texnologiya – psixologik va pedagogik o'g'itlar yig'indisi bo'lib, shakllar, metodlar, usullar, o'qitish yo'llari, tarbiyaviy vositalarning maxsus to'plamidir. Ayni zamonda u pedagogik jarayonning tashkiliy-metodik omilini ham bildiradi» (B.Lixachev).

«Pedagogik texnologiya – o'quv jarayonini amalga oshirishning mazmuniy texnikasi» (V.P. Bepalko).

«Pedagogik texnologiya – rejalashtirilgan o'qitish natijalariga erishish jarayoni tavsifi» (I.P. Volkov).

«Texnologiya – ishlov berish, holatni o'zgartirish san'ati, mahorati, malakasi va metodlar yig'indisi» (V.M. Shepel).

«Pedagogik texnologiya – talaba va o'qituvchining ularga zarur sharoit yaratish orqali o'quv jarayonini loyihalashtirish, tashkil etish hamda o'tkazish bo'yicha ular pedagogik faoliyatining har tomonlama o'ylangan modelidir». (V.M.Manaxov).

Oliy o'quv yurtida ta'limni takomillashtirish maqsadida pedagogik muloqotning yangi shakllari, axborotlarning tarkibiy qismlarini qayta ishlab chiqish, o'quv faoliyatini boshqarishning yangi shakllari talab qilinadi.

Texnologik taraqqiyot bugungi kunda ijtimoiy jarayonlarni kuzatib borishga qodir eng muhim komponentlardan biridir. Pedagogik ta'lim texnologiyasini yaxshilash jamiyat madaniy saviyasini va uning iqtisodiy qudratini shakllantirish shartidir.

Pedagogikada o'qitish texnologiyalari bilan birga ta'limiy texnologiyalar ham o'rin olgan. Ta'limiy texnologiyalar mazmun-axborot aspektini bildirsa, o'qitish texnologiyasi jarayonga aloqador deb hisoblanadi, ya'ni ular orasida hali ham aniq farqlar belgilanmagan.

Pedagogik texnologiya talabalarning tayyorgarlik darajasiga, ularning axborotlar bilan tanishishi va amaliy tayyorgarligiga moslangan bo'lishi lozim.

Kasbiy ta'lim tizimida o'qitish texnologiyalari fundamental va amaliy bilimlarning o'zlashtirilishini, harakatlarning reflektivligani aks ettiradi va o'z kasbiy faoliyatini shakllantiradi.

Pedagogik texnologiya o'qituvchi va talaba faoliyati bilan belgilanadi. Faoliyatning bunday turlariga ko'ra pedagogik texnologiyaning tuzilmasi aniqlanadi.

Pedagogik texnologiyaning tuzilmasi. U konseptual asos, ta'lim jarayoni mazmuni, texnologik jarayondan iborat bo'ladi.

Har bir pedagogik texnologiya muayyan ilmiy konsepsiyaga asoslanadi.

Pedagogik texnologiyaning ilmiy konsepsiyasi ta'lim maqsadlariga erishishning falsafiy, psixologik, ijtimoiy-pedagogik va didaktik asoslashlarni qamrab oladi.

Ta'lim jarayoni mazmuni ta'lim jarayonining umumiy va aniq maqsadlari, o'quv materialini mazmunidan iborat bo'ladi.

Texnologik jarayon o'quv jarayonini tashkil etish, o'qituvchi faoliyati, talaba faoliyati, o'quv jarayonini boshqarish usullari, o'quv jarayoni diagnostikasini qamrab oladi.

Tadqiqotchilar har qanday pedagogik texnologiyalarni qanoatlantiradigan mezonlarni belgilaydilar.

Izchillik pedagogik texnologiyaning mezoni sifatida jarayonning mantiqiyliqi, pedagogik texnologiyaning barcha qismlarining o'zaro bog'likligi, yaxlitligini o'z ichiga oladi.

Pedagogik texnologiyaning mezonlaridan biri boshqaruvga asoslanganligidir. U o'quv jarayoni diagnostikasi, uni rejalashtirish va amalga oshirishni loyihalash, undagi o'qitish metodlari va vositalari bilan o'zgartirib turishdan iborat bo'ladi.

Pedagogik texnologiyaning samaradorlik mezonini ta'lim jarayonining konkret sharoitlarida olinadigan yuksak natijalarni ko'zda tutadi.

Qayta tiklash pedagogik texnologiyalar mezonlaridan biridir. Unda pedagogik texnologiyalarni boshqa o'quv yurtlarida qo'llash imkoniyati tushuniladi.

Shunday qilib, oliy o'quv yurtida mutaxassislarining kasbiy tayyorgarligi murakkab va doimiy harakatdagi tizimni tashkil etadi. Bu tizimda bo'lg'usi o'qituvchining texnologik tayyorgarligi alohida o'rin tutadi. U bo'lg'usi pedagogning intellektual rivojlanishi, faol o'qishi, ijodiy shaxsning rivojlanishi, tafakkurning kasbiy yo'nalganligani idrok qilish, o'quv-bilish faoliyatini tashkil etishda tadqiqiy (ilmiy) tamoyillarni amalga oshirish bilan bog'langan.

Bo'lg'usi pedagogning texnologik tayyorgarligi oliy o'quv yurtida pedagogik texnologiyalarni amalga oshirishni talab qiladi. Oliy o'quv yurti ta'lim jarayonida foydalaniladigan va keng tarqalgan pedagogik texnologiyalar: muammoli o'qitish, o'qitishning tabaqalashtirilgan va individual texnologiyasi, programmalashtirilgan o'qitish texnologiyasi, komp'yuter axborot texnologiyasi, mualliflik texnologiyasidir.

Muammoli o'qitish texnologiyasi muammoli o'qitish bu takomillashgan o'qitish texnologiyasidir.

Hozirgi oliy maktabdagi samarador o'qitish texnologiyasi – bu muammoli o'qitishdir. Uning vazifasi faol bilish jarayoniga undash va tafakkurda ilmiy-tadqiqot uslubini shakllantirishdir. Muammoli o'qitish ijodiy, faol shaxs tarbiyasi maqsadlariga mos keladi.

Muammoli o'qitish jarayonida talabaning mustaqilligi o'qitishning reproduktiv shakllariga nisbatan tobora o'sib boradi.

Ma'lumki, o'qitishning har qanday asosida inson faoliyatining muayyan qonuniyatlari, shaxs rivoji va ular negizida shakllangan pedagogik fanning tamoyillari va qoidalari yotadi. Insonning bilish faoliyati jarayoni mantiqiy bilish

ziddiyatlarini hal qilishda ob'ektiv qonuniyatlari didaktik tamoyil – muammolilikka tayanadi.

Shunday qilib, muammoli vaziyatning mohiyati shuki, u talaba tanish bo'lgan ma'lumotlar va yangi faktlar, hodisalar (qaysiki, ularni tushunish va tushuntirish uchun avvalgi bilimlar kamlik qiladi) o'rtasidagi ziddiyatdir. Bu ziddiyat bilimlarni ijodiy o'zlashtirish uchun harakatlantiruvchi kuchdir.

Muammoli vaziyatning belgilari quyidagilar:

- talabaga notanish faktning mavjud bo'lishi;
- vazifalarni bajarish uchun talabaga beriladigan ko'rsatmalar, yuzaga kelgan bilish mashaqqatini hal qilishda ularning shaxsiy manfaatdorligi.

Muammoli vaziyatdan chiqq olish hamma vaqt muammoni, ya'ni nima noma'lum ekanligini, uning nutqiy ifodasi va echimini anglash bilan bog'langan.

Muammoli vaziyatning fikriy tahlil qiladigan bo'lsak, u avvalombor talabalarning mustaqil aqliy faoliyatidir. U talabani intellektual mashaqqat keltirib chiqargan sabablarni tushunishga, unga kirish, muammoni so'z bilan ifodalash, ya'ni faol fikr yuritishni belgilashga olib keladi. Bu o'rinda izchillik yorqin ko'rinadi: avvalo muammoli vaziyat yuzaga keladi, so'ng o'quv muammosi shakllanadi.

O'qitish amaliyotida boshqa variant – o'sha muammo tashqi ko'rinishda muammoli vaziyat yuzaga kelishiga muvofiq kelganday bo'ladigan variant ham uchraydi. Faktlar, hukmlar nazariy qoidalar ziddiyatlari mazmunidagi savollar ko'rinishidagi muammoning ifodasi odatda «nimaga» savoliga javob bo'ladigan muammoli vaziyatning mavjudligini aks ettiradi.

Muammo uch tarkibiy qismdan iborat: ma'lum (berilgan vazifa asosida), noma'lum (ularni topish yangi bilimlarni shakllantirishga olib keladi) va avvalgi bilimlar (talabalar tajribasi). Ular noma'lumni topishga yo'nalgan qidiruv ishlarini amalga oshirish uchun zarurdir. Avvalo talabaga noma'lum bo'lgan o'quv muammosi vazifasi belgilanadi va bunda uning bajarilish usullari hamda natijasi ham noma'lum bo'ladi, lekin talabalar o'zlaridagi avval egallangan bilim va ko'nikmalarga asoslanib turib kutilgan natija yoki echilish yo'lini izlashga tushadi.

Shunday qilib, talabalar biladigan vazifa va uni mustaqil hal kilinish usuli o'quv muammosi bo'la olmaydi, ikkinchidan, biror vazifaning echilish usullarini va uni izlash vositalarini bilishmasa ham o'quv muammosi bo'la olmaydi.

O'quv muammosining muhim belgilari quyidagilar:
yangi bilimlarni shakllantirishga olib keladigan noma'lumning qo'yilishi;
talabalarda noma'lumni topish yo'lida izlanishni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan muayyan bilim zahirasi bo'lishi.

O'quv muammosini echish jarayonida talabalar aqliy faoliyatining muhim bosqichi uning echilish usulini o'ylab topish yoki gipoteza qo'yish hamda gipotezani asoslashdir.

O'quv muammosi muammoli savollar bilan izchil rivojlantirib boriladi va bunda har bir savol uning hal qilinishida bir bosqich bo'lib xizmat qiladi.

Muammoning tarkibiy qismlari, ma'lum va noma'lumning o'zaro munosabati xarakteri bilimga bo'lgan ehtiyojni keltirib chiqaradi va faol bilishga bo'lgan izlanishga undaydi.

Ta'kidlash joizki, muammoli o'qitishning zaruriy sharti talabalarda haqiqatni va uning natijasini izlash jarayoniga bo'lgan ijobiy munosabatni vujudga keltirish hisoblanadi.

Talabalarning muammoli o'qitishdagi ijodiy va qidiruv bilish faoliyati muammoli vaziyat paydo qilinganda talabalar mashg'ulotda muammoni ifodalab berishdan iborat bo'ladi, ya'ni bilishdagi qiyinchiliklarning paydo bo'lishi mohiyatini (ya'ni ushbu damda unga nima ma'lum bo'lsa) so'z bilan ifodalab beradi, so'ngra muammoning echilish usullarini qidiradi va bunda turli tahminlarni olg'a suradi, talabalar haqiqiy deb topgan taxminlardan birini faraz sifatida asos qilib oladi va uni isbotlaydi, izlanish muammo yoki vazifa bajarilgandan so'ng tugallanadi.

Shaxs bilish faoliyatining izlanish davrini maxsus sxemalarda ifodalash mumkin: muammoli vaziyat – o'quv muammosi – o'quv muammosini echish uchun izlanish – muammoning echilishi.

Muammoli o'qitish mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazishning muhim tomoni shundaki, bunda o'qituvchi uning ham ta'limiy, ham tarbiyaviy funksiyasini

yaxshi anglab olgan bo'lishi talab qilinadi. O'qituvchi hech qachon talabalarga tayyor haqiqatni (echimni) berishi kerak emas, balki ularga bilimlarni olishga turtki berishi, mashg'ulotlarda va hayot faoliyatlarida zarur bo'lgan axborot, voqea, vaqt va hodisalarni ongida kayta ishlashlariga yordam berishi lozim bo'ladi.

O'qituvchi talabaning materialni mantiqiy bayon qila olishini, uni bayon qilish usulini, talabalarning unga bo'lgan e'tiborini kuzatib boradi. Ma'ruzaning mazmunini bayon qilish yoki muhokamaning borish jarayoni talabalarni zeriktirib qo'yganda yoki, aksincha, undagi ayrim masalalarga qiziqish kuchli bo'lganda hamda uni muhokama qilish zaruriyati tug'ilganda, hurmatini saqlagan holda ma'ruzachini biroz to'xtatib, seminarni jamoa muhokamasiga aylantirish maqsadga muvofiqdir.

Ma'ruzani guruh bo'lib muhokama qilish pedagogik aspektda seminarining eng ahamiyatli qismi hisoblanadi, binobarin, seminarda talabalar jonli bilish faoliyatiga jalb qilinadilar. O'qituvchi avvalo ma'ruza va axborot mazmunini muhokama qilishga o'tar ekan, bu mazmun qanchalik talabalar darajasida ekanligini baholay olishi lozim. Ma'ruza mazmunining tushunilishi ma'ruzachiga shu seminar qatnashchilarining bergan savollari va talabalarning o'qituvchi tomonidan qo'yilgan savollarga (o'qituvchi odatda ularning o'zlari savol bermagan taqdirda yoki ularning savollari mavzu mazmunining bir tomonigagina aloqador bo'lganda talabalarga savol bilan murojaat qiladi) javob berishlari chog'ida baholanadi.

O'quv jarayonini takomillashtirish metodlari muammoli o'qitish jarayonida samaradorligi bilan alohida ahamiyatga ega. Ulardan talaba ijodiy shaxsni – bo'lg'usi mutaxassisni shakllantirish nuqtai nazardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bunday o'qitishda talabalarning bilish mustaqilligini shakllantirish va rivojlantirish katta ahamiyatga ega, chunki u talabalarda bilimga bo'lgan barqaror qiziqishning shakllanganligini, tashabbus va mustaqil faoliyatning muntazamligini, muayyan aqliy harakatlar va aqliy sifatlar tizimini ko'zda tutadi.

Ma'lumki, bilish talabalarning tushunishi uchun bo'lgan aniq fan sathida boshlanar va bu bosqichga uning rivojlanishi, qobiliyati mos kelishi, tabiat jarayonlari va hodisalarining ichki mohiyati va haqiqiy mazmuniga etish va shu tariqa asl ilmiy bilimlar o'zlashtirilgan ekan, bu o'rinda o'qitishning faol, muammoli-ijodiy

metodlarini qo'llash zarur. Vazifa ilmiy bilimlarni egallash jarayonida o'z-o'zidan hal bo'lmaydi, uning echilishi tafakkurni maxsus mashq qildirishga jalb etadi. SHu ma'noda gap o'quv materialini o'rganishning muayyan obrazi, tashkiliy, pedagogik maqsadga muvofiqligi jarayoni, fikrlashning faol taraqqiy etib borishi, bilish faolligi va talabalarning mustaqilligi haqida boradi.

Demak, muammoli o'qitish bu o'qitishning pedagogik texnologiyasi bo'lib, o'zining mazmuni va tuzilmasi bo'yicha o'qituvchi va talabaning ijodiy jarayonlarini sintezlaydi.

Muammoli o'qitishda pedagogik faoliyatning xususiyatlari o'quv axborotlari mazmunini muammoli vazifalar va muammoli vaziyatlarga ko'chirish orqali maqsadlarni oydinlashtirish jarayonidan iborat bo'ladi.

Ijodiy o'quv faoliyati muammoli o'qitishning asosiy qoidasini saqlagan holda – ma'lum darajada harakatlarga erkinlik berish va bu harakatlarni bilish jarayonining butun tuzilmasi tizimida tartibga tushirish bilan boshqariladi.

Keyingi bosqichda tanlangan vazifani muhokama qilish tashkil etiladi, uning hal qilinish jarayoni kuzatiladi, axborotlar tahlil qilinadi, tanlangan echimning to'g'riligi tekshirib ko'riladi, undan so'ng yangi nazariy nuqtai nazarni tuzishga o'tiladi.

Muammoli leksiya talabalarning faqat tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi bo'lishini taqozo qiladi, u ilmiy tafakkur uslubini rivojlantiradi, Muammoli vazifalar o'zida operatsion-protsessual tarkiblarni birlashtiradi. Ular axborot mazmunini yangilash va yangi bilimlar olish orqali tahlilga, tushunish va izohlashga, o'rganilayotgan ilmiy muammolarni nazariy jihatdan fikrlashga diqqatni jalb qiladi. Muammoli leksiya davomida talabalarda mavjud bo'lgan bilimlardan foydalaniladi, ularni yangi axborotlar bilan bog'liq ravishda yangilanishini amalga oshiradi, muammoli leksiyaning bilish faoliyatini samarali boshqarishni ta'minlaydi.

Bunday vazifalarni hal qilishda O'qitish jarayonida o'yinli texnologiyalardan foydalanish ulkan ahamiyat kasb etadi. O'yinli texnologiyalarda O'qitishning faol metodlaridan foydalanish muloqotning demokratik uslubi yutuqlaridan foydalanishga xizmat qiladi, talabalarning ijodiy kuchlari va qobiliyatini o'stiradi.

I.2. Tasviriy san'at asarlarini badiiy tahlil qilishga o'rgatishda zamonaviy pedagogik texnologiyalaridan foydalanishning falsafiy asoslari

O'zbekistonda milliy qadriyatlarni o'rganishga, ular orqali yoshlarimiz ta'lim va tarbiyasiga alohida e'tibor qaratganligi bejiz emas (1). Bu masalaga O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ham alohida e'tibor qaratilgan. Istiqloq yillarida milliy qadriyatga, jahon ilmi fani, madaniyati, san'atida o'chmas iz qoldirgan buyuk ajdodlarimizni bilish imkoniga ega bo'ldik.

O'rta sharq miniatyura rangtasviri dahosi, afsonaga aylanib ketgan Behzod ijodi XIX asr ohiridan boshlab o'rgalinib kelinmoqda. U hali yana uzoq vaqt o'zining yorqin asarlarida tabiatning rango-rang olmamini o'ziga qamrab olgan maftunkor go'zalligi, mehnatkash inson va ijodkorning turmush va ma'naviy dunyosiga teran kirib borganligi bilan taqiqotchilar e'tiborini o'ziga toratadi.

Sharq Renessansining buyuk vakillaridan biri naqqosh va musavvir Kamoliddin Bexzod jahon tasviriy san'ati, xususan, kitob bezagi sohasida, portret, manzara, turmush, tarixiy janrlarda yuksak g'oyaviy, badiiy saviyada asarlar yaratdiki, ular jahonning ko'pgina mamlakatlarida sevib o'rganilmoqda.

Xozirda Bexzod asarlari Berlindagi Milliy kutubxona, AQSH dagi Boston kutubxonasi, Sankt-Peterburgdagi Saltikov-Shchedrin nomli kutubxona, Erondagi Guliston saroyi kutubxonalar, Metro politen, Misr Arab Respublikasining Koxira, Londondagi Britaniya. Fransiyaning Luvr muzeylarida saqlanmoqda. Bexzodning zamondoshlari va undan keyingi tarixchi olimlar Kamoliddin Bexzodni "Sharq Rafayeli", "nozik va nafis istedodga ega rassom", "Ikkinchi moniy", "Rang tasvirchilar uchun namuna", deb tariflaganlari bejiz yemas, Bu fikrlardan shu narsa malum bo'lib turibdiki, Kamoliddin Bexzod ijodi jaxon xalqlarining umuminsoniy qadriyatlariga, umumxalq merosiga aylanib bo'lgan.

Shuning uchun xam Bexzod xayoti va ijodi barcha xalqlarning talim tizimida joy olishi, yosh avlodni badiiy va axloqiy madaniyatini yuksaltirishga, sanat asarlarini

o'rganishga, bo'lg'usi rassom-o'qituvchilarni kasbiy tayyorgarligini oshirishga xizmat qiladi.

Musavirlar piri ustoz Moniy (217-273) shogirdlari bilan tasvirlarni kuzatar ekan xayojonlanib ketibdi. Chunki uning shogirdlari mahorati baland cho'qqilarini egallab rasmga jon bag'ishlash darajasida taassurot eratgan ekan. O'shanda Moniy yana o'z shogirdlariga san'at ravnaqining yangi ufqini belgilab bergan. Uning aytishicha, agar musavvir tasvirdagi har bir chiziqqa jon bag'ishlay olsagina u haqiqiy san'at kalitini egallagan bo'ladi.

Ana shunday san'at tilsimini ochgan rassomlardan biri ustoz Kamoliddin Behzod edi.

“Moniy soniy” ya'ni “Ikkinchi Moniy” degan yuksak fahriy unvonga sazovor, hayotiligidayoq zamondoshlari tomonidan “nodirlar nodiri”, “yaxshilar yaxshisi”, “musavvirlar peshvosi”, “muzaxxiblar yetakchisi” kabi sifatlar bilan tariflangan ustoz Behzod jahon tasviriy sanati tarixida munosib o'rin egallagan. Hatto, Yevropalik sanatshunoslar ham Behzod sanati va mahoratidan hayratlanib uni “Sharq Rafayeli” degan yuksak miqoya bilan ulug'langanlar.

Musavvir ijodi O'rta va Yaqin Sharqning yuksak badiiy salohiyati, nafis nafosati va ma'naviy qirralarini o'zida namoyish etishi sababli butun dunyoda chuqur ehtirom bilan e'tirof etiladi. U o'z safdoshlari va izdoshlari orasida davr ruhini nozik idrok qila olish qobiliyatiga ega mutafakkir, an'anaviy lavhalarni berishda o'ta zaruriy fikr zanjirlarini o'zaro ulab, ularda yetuk shaklni ifodaviy olgan buyuk musavvirdir.

Rassom uchun nafaqat “Shohnoma” singari doston va afsonalar mavzulariga ishlangan an'anaviy lavhalar, balki mehnatkash kishilar qadoq qo'llari bilan tiklanayotgan inshootlar, dehqon, chorvador kabi oddiy odamlar mehnati ham ilhom manbai bo'lgan.

Behzodning qalam chizgilari o'zining yetuk nazmiy shakli, chiziqlarning tabiiy va egiluvchanligi, alohida qat'iyiligi, nafis va xushbichimlikning tantanali jaranglashi, koloritning butun kompozitsiyani egallashi kabi jihatlari bilan ajralib turadi. Izlanish va iste'dod musavvirga olam tasvirining mukammal o'lchamlarini topishga imkon

bergan. U bir vaqtning o'zida miniatyuraning shartli xoshiyalarida fazoviy cheksizlik va chuqurlik o'lchamlarini rivojlantirgan.

Behzod yaratgan badiiy xazina Sharq madaniyatida behad noyobdir. Tarixiy o'tmishga qiziqish ortib borgani sayin rassom va tarixchilarimizning buyuk miniatyurachi merosiga murojaat qilishlari ham o'sib boraveradi.

XV asrga kelib, Xuroson va Movarounnaxr xududida Islom diniga asoslangan sufiylik yo'nalishi keng tarqaldi. Xuroson aslida avvaldan ham tasavvuf talimotini markazi bo'lgan edi. XV asr so'nggi choragiga kelib, tasavvufning naqshbandiya tariqati jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab oldi. Tasavvuf va naqshbandiya tariqatining asosiy talablari manfaatparastlikni rad etish, o'z ixtiyori bilan va ongli ravishda kamtarona va oddiy hayot kechirish kabilardan iboratdir. Xudo oldida barcha barobarligi, o'lim barcha ijtimoiy chegaralarni olib tashlashi u shox va gadoni tenglashtirishini malum qilish maxzkur talimotning bosh g'oyasidir.

Xirotdagi barcha mashxur olimlar, rassomlar, mashshoqlar va shoirlar ana shu talimot tarafdorlari edilar. Hatto Xirotda hukmdori Sulton Xusayn Boyqaro (1464 yilda taxtga o'tirgan) Jomiy va Navoiyning tasiri ostida tasavvufni yoqlagan.

Ilgari saroy doirasi xayotini aks ettirgan, keyinchalik Behzod va uning maktabi misolida ancha demokratlashgan XV asr so'nggi choragi Hirot miniatyurasida tasavvuf talimoti o'z aksini topgan. Hirot miniatyurasida hunarmandlar, quruvchilar, hammomda yuvinayotganlar, kurash tushayotganlar, oddiy kishilar, sufiylar va darveshlar, sevgi syujetlari (Farhodning o'limi, Yusuf va Zulayho, Layli va Majnun) singari tasvirlar keng o'rin olgan.

Kamoliddin Behzod asarlaridan biri "So'fiylar raqsi" asari badiiy taxlili va falsafiy, psixologik tomonlarini ko'rib chiqamiz.

XV asr ohirida Xurosonda va XVI-XVII asrlarda Movarounnaxrda so'fiylikka asoslangan miniatyuralar paydo bo'ldi. "So'fiylik tasavvuf dunyoni bilishni, aniq kundalik hayotni, insonning dunyo va koinot, zamon va makon, lahza va abadiyat, hodisa va mohiyat haqidagi tushunchalari bilan bog'liq qarashlarni o'zida aks ettiradi.

Asarda ertalab baxor faslini ko'rkam zaminida 23 ta insonlar qiyofasi tasvirlangan. Bizning taxminimizcha musavvir 21 mart ya'ni navro'z yangi kunda "

Samo” tadbiri o‘tkazilayotgan jarayoni moxirona aks ettirilgan. Asarda zikr tushayotgan psixologik xolati va dinamik ko‘rinishda aks ettirilgan.

Xuroson va Movoraunnahrda “Samo” deb nomlangan diniy marosimlar o‘tkazilgan. Samo marosimini ertalab yoki kechki payt o‘tkazilgan. Bu marosimda Kamoliddin Behzod juda ko‘p qatnashib, qalbidagi his-tuyg‘uni va an‘analarni falsafiy psixologik ma‘nosini, ya‘ni koinot bilan inson o‘rtasidagi munosabatlar hamda komil inson falsafasi haqidagi hikmatni o‘z asarlarida chiziq, shakl va ranglar orqali ko‘rsatishga harakat qilgan. Hayoti va ijodi davomida qiziqarli va o‘lmas milliy an‘analar hamda yoshlarni komil inson ruxida tarbiyalash zaruratini anglab “Samo” deb nomlangan marosimdan ta’sirlanib, Kamoliddin Behzod 1480 yil Hirotda “So‘fiylar raqsi” deb nomlangan asarini yaratdi (4).

Behzodning “So‘fiylar raqsi” deb nomlangan asarida tabiatning eng go‘zal fasli, ya‘ni tabiatni uyg‘onish davri – bahor tasvirlangan.(1-rasm).

Bu esa asarda poklanish bilan uyg‘unlikda aks ettirilgan. Asarda yuzi, xatto koinot ham dinamik holatda tasvirlanganligini ko‘ramiz.(2-rasm). Sharq halqlari musiqa merosi , xususan o‘zbek ashula janriga tasiko‘rsatgan. Z mavlud va b. diniy marosimlarning tarkibiy qismiga aylangan.□ Zikr tushishning o‘z qonun qoidalari mavjud bo‘lgan.

Zikr tushish (samo) to‘g‘ri bajarilsa, kishi beixtiyor vajdh (ekstaz) holatiga tushib qoladi. Lekin asl vajdh bilan soxta vajdhni farqlash mumkin. Musiqa ijro etiladigan yig‘inlarda ishtirok etishdan maqsad aslida manan va ruhan poklanishdir. Ammo munofiq va riyokor kishilar o‘zlarini vajdh xolatiga tushganday ko‘rsatishga va bu bilan obro‘-etibor qozonishga intilishadi. Tasavvuf adabiyotida firibgarlarning bu qiliqlari ularga kulfatlar keltirishi bayon etiladi. Jumladan, XIV asrga mansub manbada: “Zikru samo yig‘inida taqiqlangan, noqonuniy hatti-harakatlar qilinsa, harom-harish yo‘l bilan topilgan ovqatlar qo‘yilsa, ayollar, o‘smirlar bilan yonmayon o‘tirilsa, sharobxo‘rlik qilinsa, so‘fiylik tariqatiga begona kishilar ishtirok etsa, musiqani yoqtirmasada, xurmatli kishining yuz-xotiri uchun o‘zini musiqa tinglayotganday ko‘rsatgan odamlar tursa, o‘zini vajdh xolatiga tushgan kabi

ko'rsatadigan munofiqlar bo'lsa, kishi bunday zikru samo yig'inlarida qatnashmagani maqul" deya ogohlantiriladi.

Zikr deganda nima tushuniladi? Zikr- (arab.- eslash, yodga olish) – tasavvufda xudoni yodga olish bilan bog'liq " samo" marosimi va shu marosimdaijro etiladigan musiqiy-sheriy turkum. Musulmonlar orasida 10-11 asrlarda shakllangan. Iloxiyotchilar Allohni yodga olish zarurligini Qur'oni karimning " Allohni zikr qilish bilan qalblar orom olur" degan ko'rsatmasi bilan bog'laydilar. Z. ning asosiy falsafiy-estetik maqsadi vajd ya'ni insonning musiqa, shyer va raqs vositasida oliy Xaqiqat

(Tangri) bilan xissiy-ruhiy birlpshib uyg'unlashib ketishidir. Turli xil ko'rinishlari ishlatiladi. Masalan.,Turkistonde eng ko'p tarqalgan naqshbandiya tariqatida " Zikri jaxriy" (oshkora, katta zikr) yoki (Xonaqoyi") deb xam ataladi "Zikri xafiy" (yashirin kichik zikr) " Zikri dil" kabi turlari qo'llanilgan. Jaloliddin Rumi asos solgan mavlaviya tariqatida zikr arosimiga musiqiy asboblar va raqslar keng jalb qilina boshlagan.

Naqshbandiya tariqatida Zikri jaxriy turkumning asosiy qismlari usullarning zarblariga ko'ra "yakzarb" "duzarb" "sezarb" "chorzarb" deb atalgan. Asosiy qismlarni "Chopqin" deb yuritilgan. Quron suralari rechitativ uslubida kuylanadi. Turkumning qismlari kuy-ohang, usul-ritmik tuzilmalari Sharq xalqdari musiqa merosi, xususan, o'zbek ashula janriga tasir ko'rsatgan. Zikr Mavlud va boshqa diniy marosimlarning tarkibiy qismiga aylangan.

Asarning umumiy ko'rinishi simmetrik joylashgan bo'lsa-da, qismlarining ko'pi assimetrik holatda tasvirlangan. Asar koloriti jigar rang bo'lib, kompozitsiyada biror bo'shliq joy qoldirilmagan. Hamma joy bezab chiqilgan. Asar insonlarni go'zallik olami, olam va Alloh go'zalligini qalb bilan ko'rishga undaydi. Go'zallik qalbidagi falsafani qalbdan o'qishga chaqiradi.

Asarning orqa planida qirlar ramziy ma'noda to'lqinsimon, ya'ni dinamik holatda tasvirlagan. Qirlarning dinamik berilishi asar g'oyasini amalga oshirishga qaratilgan. Insonlarning dinamik holati bilan yer, osmon, xatto tabiat bir yaxlit uyg'unlikda tasvirlangan. Osmondagi bulutlarning jo'shqin harakatda tasvirlanishi asar g'oyasini amalga oshirishga yordam bergan. Bu esa asarning ham ko'rinishi,

ham mazmunini yaxlit bir tizimga keltiradi. (3-rasm). Oldinga qo'yilgan g'oyani to'liq amalga oshirishda yordam bergan.

Kompozitsiyaning yuqori qismida uchta terak simmetrik hamda ritmik takrorlanishi asarning dinamik holatini ta'minlagan. Teraklarda musavvir hayotda shoh bo'ladimi yoki gado, insonlar til va dil birligini hech qachon unutmasligi ya'ni o'zini anglagan holda yashashi lozimligiga ishora qilgan. Qirlarning to'lqinsimon shakli inson hayotining tun va kunduzdan iboratligiga ishora qilgan. Xuddi shu mazmuni osmondagi bulutlarning dinamik holatida ham ko'rish mumkin. Asarning umumiy tuzilishi to'g'ri to'rtburchak shaklida joylashtirilgan. Asarning bo'yi eniga qaraganda katta olingan. Bu asarning g'oyasini, yechimini amalga oshirishga xizmat qilgan.

Musavvir asar kompozitsiyasida so'fiylarni besh guruhga ajratadi bu hammasi umumiy maqsadga qaratilgan.

Kompozitsiyada musavvir nima uchun asarni besh guruhga ajratadi? Buning 1-chi sababi kompozitsiya muvozanatini saqlash bo'lsa ikkinchisi 5 raqami besh kunlik dunyoni, ya'ni insonlar bu dunyoga vaqtincha sinovga kelganligini anglatadi. Har bir inson ruxiy poklikka erishishi kerakligiga ishora qiladi. Asar aylana shaklda joylangan bo'lib, 5 ta qism simmetrik joylashgan bo'lsa-da, uning qalbi dinamik holatda aks ettirilgan.

I-guruhda davra qurib turgan 7 ta yetuk so'fiy, ya'ni komil inson namuna tariqasida ko'kka ko'tarilgan. Yetti raqami yetuk, komil insonlar ramzi. Ular qatorida Alisher Navoiy, Abduraxmon Jomiy, Kamoliddin Behzod va boshqalar tasvirlangan. Yuqorida tasvirlangan yettita so'fiy qiyofasiga e'tibor bersangiz, ularning emotsional holatini ko'rish mumkin. (4,5-rasmlar).

Bu guruhning marosimdagi vazifasi quyidagilardan iborat bo'lgan. Ular diniy ma'ruza, she'rlarni, xadislarni, duolarni ta'sirli ohangda o'qiganlar, keyin qolganlar jo'r bo'la boshlaganlar. Asta maqom, ashulalar, aytganlar. 7 raqami so'fiylarda o'ziga xos mazmunga ega eng birinchi so'fiylar inson qalbini yetti qismga (qismatga) bo'lganlar; ya'ni, yetti qavat osmon kabi; va har qaysi qism ma'rifatning muayyan jarayoni vazifasini o'tagan:

Birinchi qism (qismat) - Qalb pardasi bo‘lib, shayton vasvasasi va kufr ishlardan qalbni asragan;

Ikkinchi qism - qalbning o‘zi bo‘lib, inson qomatining chap tomonidadir va uning iymoni hisoblanadi.

Uchinchi qism - Shiqoq deb atalib, halqga bo‘lgan mehru-shavqatga atalgan;

To‘rtinchi qism - Fuod atalib, ko‘z bilan anglab ko‘riladigan vaqtdir;

Beshinchi qism - “Hubbatul-qalb” bo‘lib, Xudoga bo‘lgan muhabbatning asosidir;

Oltinchi qism - Suvaydo atalib, ilohiy sirning (shu ulug‘ kishilarga) anglanganidir;

Yettinchi qism - “Muhjatul-qalb” atalib, Xudoninng sifatlariga aytilgandir.”□

Taniqli olim Najmiddin Komilov “Sino” (2013№11) jurnaldagi “Malomotiya falsafasi” ilmiy maqolasida “Samo” majlisida Jalolidin Rumiyning aytilgan g‘azallari va uning mantiqiy yechimini juda yaxshi yoritib bergan.

Rumiyning Devoni Kabir 460-betida shunday deydi:

Mazmuni:

Na holdir ey musulmonlar, ki man o‘zni bilolmasman.

Na tarsoyu yahudiyman, na gabru na musulmonman.

Na sharqlikman, na g‘arblikman, na dengizdan, na sahrodan

Na tabiat konidanman, na falakdanman.

Na tuproqman, na yeldurman, na suvdanman, na otashman.

Na Arshdanman, na yerdanman, na dunyoyu, na konidanman.

Na Hindiston, na Chindanman, na bulg‘orlik, na slavyan.

Na Iroqdanu na Xuroson mulkidan keldim.

Na dunyoviy, na uxroviy, na jannatdan, na do‘zaxdan.

Na Odamdan, na Havvodan, na firdavsi rizvondanman.

Makonimdir makonsizlik, nishonimdir nishonsizlik,

Na tan bordur, ki Jono jonidandirman.

Ikkilikni surib haydab, ikki olamni Bir ko‘rdum,

Birni izlarman, Birni deyman, Birni bilaman, bir deb taniyman.

Udir avval, Udir oxir, Udir zohir, Udir botin

O‘zidan boshqa Hu (U, O‘z, Xudo) yo‘qdir, «Hu yo man Hu»

(Udirkim Udir)dan o‘zgani bilolmasman.

Muhabbat jomidan mastman, ikki dunyoni topshirdim.

Bag‘ayri rindu devonalikdan o‘zga shulg‘im yo‘q.

Agar o‘z umrimda bir kun U siz ir nafas olgan bo‘lsam,

O‘sha vaqtu soatdagi o‘z umrimdan pushaymonman.

Agar Do‘st bilan bir kun xilvatda bo‘lish nasib etsa,

Ikki olamni oyoq ostimga olib, boshqa ish qilmasdim.

Ey yorlar, ajoyib qushmanki, tuxm ichida uchadiganman,

Loydan yaralgan jism ichra ishqman, jonman.

Alo ey Shamsi Tabriziy, bu olamda shunchalik sarxushmanki,

Mastlik va beboshlikdan boshqa darmonim yo‘q.

Oshiq so‘fiyning his-hayajonga to‘la, ko‘tarinki kayfiyatini ifodalaydi bu g‘azal.

Aytish joizki, Rumiylar g‘azallarining aksari ana shunday o‘ynoqi va serohangdir.

Ammo bu «o‘ynoqilik» yengillik belgisi emas. Rumiylar g‘oyat chuqur orifona ma’nolarni ana shunday serohang satrlarda ifodalash bilan eshituvchi va o‘quvchilarning qalbiga tasir etish va shu orqali so‘fiyona g‘oyalarni singdirib borishni mo‘ljallagan.

Voqean, bu g‘azallar so‘fiylarning samo majlislari uchun aytilgan.

Darveshlar shunday g‘azallarni aytib, uning ohangida raqsga tushganlar, vajd holatini kashf etganlar.

Agar diqqat qilsak, ushbu g‘azalda oshiq holatining tasviri orqali orifona g‘oyalarning o‘ziga xos konsepsiyasi bayon etilgan. YA’ni: inson

Mutlaq ruhdandir, ruh esa makonu zamonga sig‘maydigan, moddiylik tushunchalari, o‘lchamlarini tan olmaydigan javhar. Agar ruh Tabiat iskanjasidan (vujuddan) xallos bo‘lsa, Mutlaq ruh bilan birlashib ketadi, inson ruhi bilan hu (U) orasida yagonalik hosil bo‘ladi. Komillik darajasiga ko‘tarilgan inson bu Yagonalakni his etib turadi va u o‘zini zaminiy tushunchalardan xoli deb biladi. Bundan mastu sarxush bo‘lib, yayraydi.

Rumiy g‘azalining ma’nosi chuqur anglangan odam Mansur Hallojning «Analhaq» g‘oyasini ham idrok etadi. Chunki Mansur ham ayni mana shu holatda, ayni mana shu ma’noni nazarda tutib, «Men haqman» degan edi.

Rumiy g‘azallari zamirida Tabiat bilan Ruh ziddiyati va bundan qutulish g‘oyasi yotadi. U tabiatna (jamiki moddiy borliq, jumladan inson vujudi ham) ruh uchun kishan, vaqtinchalik qo‘nimgoh deb qaraydi. Parvardigor Odam Atoni loydan yaratdi. Ammo loyning o‘zi o‘zicha hech narsa emas. Loy (“obu gil”) bir surat – shakl, xolos. Ma’no mohiyat Parvardigor shu suratga yuborgan rahmoniy nafas – ruhdir. Ruh esa loy qobig‘ida, Tabiat (shakl) ruhsiz harakatga, taraqqiyotga qobil emas, taraqqiyotning sababkori ham, ijrochisi ham ruhdir. Lekin bu Tabiatni butunlay inkor qilish degan gap ham emas. Oriflar Tabiatni ruhning qo‘nimgohi der ekanlar, bu bilan moddiy-zohiriy asosning zarurligini, shakl va mazmun o‘zaro bir-biriga intiluvchi, bir-birini taqozo etuvchi asoslar ekanini e’tirof etadilar. YA’ni: inson ruhi Parvardigor (Jonon)dan, u Tabiat bag‘rida bo‘lsa ham, ammo hamma vaqt parvozga chog‘lanib turadi – Asliga qarab intiladi. Bu parvozning qanotlari ishq, jonni Jononga olib boruvchi ham shu.

II -guruhda Uchta musiqachi tasvirlangan. O‘ng tomonda ikki surnaychi va bir doirachi berilib kuy chalmoqda. Samo marosimini o‘tkazishda musiqachilar muhim o‘rin tutgan. Ular maqomlar aytib, kishilar qalbini titratgan. Ushbu marosimda musiqachilar ko‘pincha cholg‘u asboblaridan nay, doira, g‘ijjak, tanbur va boshqalardan foydalanganlar.

Behzodning “musiqiy sozlar” bilan boyitilgan asarlari oddiy tasvirga singdirilgan urush yoki maishat tavsifi, ya’ni voqealar mazmunini yorituvchi vositagina bo‘lib qolmasdan, ma’lum voqelik va borliq timsoli sifatida gavdalanadi. Mazkur davr badiiy madaniyati, ijtimoiy hayotining ayrim ko‘rinishlari haqida tasavvur beradi. Shu boisdan ham musavvir cholg‘u sozlarini musiqiy ohanglar taratuvchi vosita, qolaversa, ramziy ma’no kasb etuvchi manba sifatida tasvir etgan. Zero, cholg‘u sozlari boqiylikka daxldor, o‘z siyratiga ega bo‘lgan hayot ramzidir.

Musiqachilar soʻfiylarni jazava yaʼni murakkab ruhiy holatga keltirishda muhim oʻrin tutgan. Doirani vazifasi raqs bilan musiqani ritmik takrorlashga yordam berishdan iborat. Nay insonning qalb tubida yashirin qaygʻu-alamlarini qoʻzgʻab, koʻzlarini yoshlantiradi. Gʻijjak qalb qaʼridan chiqadigan nidolarni kuylaydi.

Shayx Sadiy “Guliston” asarida masiqa ohanglari insonning qalbini qanday holatga solishi mumkinligi toʻgʻrisida fikr bildirib, “Samo toʻrt xil boʻladi. Birinchisi asl. Bunda tinglovchi butun vujudi bilan Oллоhga intilgan va borliqni butkul unutgan boʻladi. Ikkinchisi ruxsat berilgan samo. Bunda tinglovchi koʻproq Oллоhga intilgan va qisman mavjud hayotni unutmagan boʻladi. Uchinchisi qoralangan samo. Bunda tinglovchi qisman Oллоhga koʻproq tevarak atrofidagi moddiy dunyoga berilgan boʻladi. Toʻrtinchisi taqiqlangan samo. Bunda tinglovchi Oллоhga aslo yuzlanmagan, mavjud dunyoga butkul berilgan boʻladi. Tinlovchi asl, ruxsat berilgan, qoralangan va taqiqlangan samoni farqlashi lozim. Oллоh va tinglovchi oʻrtasidagi sir ana shundadir” deydi.

Kimki musiqaning oxanglariga ovinib ichki mohiyatini idrok etmasa, u aldanadi. Ibn Arabiy ziku samoning eng yuksak choʻqqisi ilohiy goʻzallikni xis qilishdir, deydi. Aksariyat tasavvuf manbalarida tariqatga kirmoqchi boʻlgan kishi uchun avvalo jismoniy va aqliy barkamollik zarurligi takidlanadi. Zikru samoga ishtirok etuvchi boshqalarning xatti xarakatiga chalgʻimasligi, diqqatini faqat olloxni idrok etishga qaratishi lozim. Ammo musiqa tinglashning boshqa jihatlari ham mavjud. Jamoa boʻlib, musiqa tinglaganida kishilar juda katta hissiy quvvat olishadi. Zikir tushishganida ular oʻzlarida paydo boʻlgan ana shu ortiqcha energiyani chiqarib, yengillashib olishadi. Zikir tushganda vajdh (ekstaz) holatiga kirib, kiyimlarni yirtish ayni holat bilan bogʻliq. Koʻpgina risolalarda samoni tinglash toʻgʻrisida maxsus bob berilgan boʻlib, uning ohanglarida ilohiy quvvat mavjudligi takidlangan. Soʻfiylar musiqani tinglash joizligi toʻgʻrisida Allohni eshitish mumkin. Moʻminlar jannatda Allohni eshitish orqali koʻrishga muyassar boʻladilar deyishgan (Al-Xujraviy, 1071 y.). Soʻfiylar ilohiy goʻzallikning barcha koʻrinishlari kabi musiqa ham sezgi-hissiyotlar mavjud ushbu dunyoda “inson ruhini harakatlantirish”, “inson qalbiga muhrlanish”, “tinglovchini ilohiy vajdx holatiga solish” imkoniyatiga egadir

deyishadi. Shayx Sadiy “Guliston” asarida masiqa ohanglari insonning qalbini qanday holatga soligi mumkinligi to‘g‘risida fikr bildirib, “Samo to‘rt xil bo‘ladi. Birinchisi asl. Bunda tinglovchi butun vujudi bilan Ollohga intilgan va borliqni butkul unutgan bo‘ladi. Ikkinchisi ruxsat berilgan samo. Bunda tinglovchi ko‘proq Ollohga intilgan va qisman mavjud hayotni unutmagan bo‘ladi. Uchinchisi qoralangan samo. Bunda tinglovchi qisman Ollohga ko‘proq tevarak atrofidagi moddiy dunyoga berilgan bo‘ladi. To‘rtinchisi taqiqlangan samo. Bunda tinglovchi Ollohga aslo yuzlanmagan, mavjud dunyoga butkul berilgan bo‘ladi. Tinlovchi asl, ruxsat berilgan, qoralangan va taqiqlangan samoni farqlashi lozim. Olloh va tinglovchi o‘rtasidagi sir ana shundadir”deydi.

Kimki musiqaning oxanglariga ovinib ichki mohiyatini idrok etmasa, u aldanadi. Ibn Arabiy ziku samoning eng yuksak cho‘qqisi ilohiy go‘zallikni xis qilishdir, deydi. Aksariyat tasavvuf manbalarida tariqatga kirmoqchi bo‘lgan kishi uchun avvalo jismoniy va aqliy barkamollik zarurligi takidlanadi. Zikru samoga ishtirok etuvchi boshqalarning xatti xarakatiga chalg‘imasligi, diqqatini faqat olloxni idrok etishga qaratishi lozim. Ammo musiqa tinglashning boshqa jihatlari ham mavjud. Jamoa bo‘lib, musiqa tinglaganida kishilar juda katta hissiy quvvat olishadi. Zikir tushishganida ular o‘zlarida paydo bo‘lgan ana shu ortiqcha energiyani chiqarib, yengillashib olishadi. Zikir tushganda vajdh (ekstaz) holatiga kirib, kiyimlarni yirtish ayni holat bilan bog‘liq. Ko‘pgina risolalarda samoni tinglash to‘g‘risida maxsus bob berilgan bo‘lib, uning ohanglarida ilohiy quvvat mavjudligi takidlangan. So‘fiylar musiqani tinglash joizligi to‘g‘risida Allohni eshitish mumkin. Mo‘minlar jannatda Allohni eshitish orqali ko‘rishga muyassar bo‘ladilar deyishgan (Al-Xujraviy, 1071 y.). So‘fiylar ilohiy go‘zallikning barcha ko‘rinishlari kabi musiqa ham sezgi-hissiyotlar mavjud ushbu dunyoda “inson ruhini harakatlantirish”, “inson qalbiga muhrlanish”, “tinglovchini ilohiy vajdx holatiga solish” imkoniyatiga egadir deyishadi.

Ular darveshlarni jazavaga (ekstaz xolatiga) tushishiga katta hizmat qilgan. Doira olamni bildirsa, nay, g‘ijjak, tanbur va boshqa cholg‘u asboblardagi kuylar inson qalbidagi dard va alamlar hisoblanadi (6).

III guruh markazda to'rtta zikr tushayotgan shaxs kuchli dinamik holatda tasvirlangan. Zikr tushayotgan ikkita oqsoqol va o'rta yoshdagi kishi to'nlarning rangi orqali ramziy ma'no aks ettirilgan. Ranglar to'qligi yoshroq darveshlar tasviriga xos. Raqsga tushayotgan guruh harakatini rassom xilpirayotgan uzun yenglar va turli rangdagi ridolarning yengil uchishi orqali ifodalaydi. Raqs tushayotganlar kompozitsiyaning ma'naviy va plastik markazida joylashgan.

Markazdagi to'rtta raqs tushayotgan darveshning qo'l, oyoq va gavda plastik xarakatlari yuqoridagi to'lqinsimon qir shakllariga uyg'unlikda tasvirlangan. Markazdagi berilib o'ynayotgan darveshlar, shunday berilib ketganlarki, xuddi koinotga uchib ketayotgan qushga o'xshab ketgan. Ularning dinamik xolatini Bexzod mohirlik bilan tasvirlagan.

Darveshlarning o'yini, jismoniy xarakati uch xil, ya'ni o'yin, aylanma va sakrash xarakatlari berilgan. Raqs qizg'in pallaga chiqqanidan boshdagi salla ham yerga tushgan. Xuddi shunday holni belbog'ning dinamik xolatida ko'rish mumkin. Raqs tushayotgan darveshlarning qo'lini ko'tarib va pastga tushurib, o'z atoflarida tebranma va aylanma xarakatlari ekstaz xolatida ekanligini bildiradi. Ularning bir maromda, ritmik tebranma harakatlari ularning koinot bilan bog'lanishini ta'minlaydi. Darveshlarning tebranma harakatlari yaratuvchi xarakatlari bilan uyg'un kelganida, ular koinot bilan uzviy bog'lanadi (7).

So'fiylik tarixida, unda turli tariqatlarning shakllanishida musiqa va raqs juda muhim rol o'ynagan. Hofiz o'z shellarida musiqa va raqs uning olam va izteroblarini unitib Haqiqatga, Uyg'unlikka yaqinlashishga yaqindan yordam berganini ta'kidladi.

Musiqa ohanglariga raqs tushish tasavvufning barcha tariqatlari uchun xos emas. Masalan, Naqshbandiya va Qodiriya tariqati marosimlarida musiqa jo'rligida raqs tushishni maqullamaydi. "Biz shu ishni qilmaymiz, inkor ham qilmaymiz", deydi Bahouddin Naqshband. Shunday bo'lsa-da, ushbu tariqatdagi so'fiylar ham davra ko'rib, musiqa jo'rligida sherxonlik qilishgan va tanalarini ohangga mos tebratishi, vajdx holatiga tushishgan. Ularning holati, harakatlari, muayyan jihatdan, so'fiylarning o'ziga xos marosimi sifatida taassurot uyg'otadi.

IV guruh. Raqs ohirida gangib, yarim va umuman hushdan ketganlar. Shu holatda xissiyot, hayolotga berilish va o'zini boshqara olmaslik hamda zikr tushganlarida jazavaga (ekstaz xolatiga) tushishi aks ettirilgan. Jazava holatida ular haq bilan qo'shib ketishi, ya'ni murakkab psixologik holat tasvirlangan. Asablari nihoyatda zo'riqishi natijasida glossariya va gallyutsikatsiya holatiga tushganlari psixologik holati mohirlik bilan aks ettirgan. Bu murakkab psixologik holat "Muraqaba" deb yuritiladi. Asarning pastki qismidagi ikkinchi guruhchalar hayolot ummoniga g'arq bo'lmoq aslida dunyo ilohiy olam g'ami bilan mashg'ul bo'lmoqlik hamda o'zlikdan kechib, foniy dunyoni unutib, boqiy olamni o'ylab ilohiy hayol ummoniga g'arq bo'lish, ruhiy xayolotini aks ettirgan.

So'fiylar jazavaga tushishlarining so'nggi davrida parvardigorga yaqinlashadi va haq bilan so'zlasha boshlaydi. Bu hol "Ishroq" deb atalgan.

Samo marosimida zikr tushishning boshi va oxirini musavvir mohirona bir tizimda aks ettirgan (6-7-rasmlar).

So'fiy vajdx holatiga tushganida boshqa barcha narsalarni unutib, butun qalbi bilan Allohga intiladi. O'shanda u musiqa ohanglariga mos harakatlar qilib, asta-sekin ruhiy sarxush bo'lib qoladi. O'zi to'g'risida mutlaqo o'ylamay qo'ydi. Zikru samo marosimida har qanday murid ham ishtirok etavermagan. Zikru samo marosimida ishtirok etish uchun murid muayyan ruhiy tayyorgarlik ko'rishi kerak. Zikrga tushish doriga qiyoslanadi. Bazi bemorlarga biror dorini istemol qilish tayinlansa, ayrimlariga bu dorini ichish taqiqlanadi. Zikr ham shunday tayyor ekanligini yoki emasligiga qarab, pir ayrim muridlarga zikr tushishga ruxsat beradi, bazilarini esa bundan qaytaradi.

So'fiy vajdx (ekstaz) holatiga tushganda uning harakatlari raqsga o'xshab ketadi. Bu paytda so'fiy butun vujudi bilan Ollohga beriladi. Uning vujudi Olloh ishqiga to'lib toshadi. So'fiy o'zini va olamni unutadi, vujudini sezmay qoladi. Oyooqlari bilan yerni urib, qo'llari bilan chapak chala boshlaydi. So'fiyning zikru samodagi bu holati "ittiqot" raqsi deyiladi.

Payg'ambarimizning muborak xadislarida insonning vajdx holatiga uning g'ayritabiiy xolati ekani, bu payida u o'zi bilmagan, sezmagani xolda turli xatti-

harakatlar qilishi takidlangan. “Bir kuni payg‘ambarimiz Aliga: “Sen menda va Men senda” dedilar. Bu gapni eshitgan Ali sevinganidan vajdx holatiga tushib, oyoqlarini yerga ura boshladi”. “Bir kuni payg‘ambarimiz Alining akasi Jafarga: “Sen tashqi ko‘rinishing bilan ham, felatvoring bilan ham menga o‘xshaysan” dedilar. Buni eshitib quvongan Jafar beixtiyor oyoqlarini yerga urib, o‘ynay boshladi”.

V-guruh koinot tasviri aks ettirilgan bo‘lib. Qirni tepa qismi to‘lqinsimon shaklda aks ettirilgan. Tabiat bohor ko‘rinishida, daraxtlar va o‘simliklar gullarga burkangan bo‘lib uchta terak simmetrik tasvirlangan. Teraklar ulug‘vorlik ramzida berilgan ya‘ni insonlarni ulug‘ ishlar qilishga chaqiradi. Koinot bilan yerni to‘lqinsimon shaklida berilishi hayot quvonch va tashvishdan, kun esa tun va kundan ibrat ekanligi ya‘ni inson qanaqa vaziyatda bo‘lmasin o‘zligini yo‘qotmaslik kerakli uqtirilgan.

K. Bexzodning Darveshlar raqsi asaridagi 23ta qiyofalar tasvirining liboslarini kiyishning o‘ziga xos tomonlariga va ramziy manolariga ega bo‘lgan.

So‘fiylar boshqa diniy tariqatdagilardan farqli tarzda ramziy manolariga ega liboslariga alohida etibor berishgan. Libos so‘fiylar hayotining muhim tashqi ramzi bo‘lgan.

XV asr ikkinchi yaami miniatyuralaridan ko‘rinadiki, so‘fiy shayxlarining libosi ich ko‘ylak, shton, tashqi “qabo” va chopon, kovush va salladan iborat bo‘lgan. Ularning libosi dunyoviy liboslaridan matosining sifati, uzunligi, eni, rangi va ayrim qismlariga ko‘ra ajralib turgan. So‘fiylar libosida barcha musurmonlar liboslariga xos jixatlar bo‘lgan holda, qo‘shimcha tarzda o‘ziga xos malum ramzlariga ham ega bo‘lgan.

Tadqiq etlayotgan davrlar miniatyuralarida so‘fiylar shayxi jigarrang, to‘q yashil, ko‘k yoki moviy rangli oldi ochiq, keng, oddiy chakmonda tasvirlanadi. Chakmonning uzunligi etiqodning haqiqiy ekanligini anglatgan. U qancha uzun bo‘lsa, so‘fiyning etiqodi shuncha kuchli hisoblangan. So‘fiylar libosi yengining kengligi dunyoviy nematlar unda saqlab turilmaydi, degan manoni anglatgan.

K. Bekzodning “So‘fiylar raqsi” nomli asarida xassa bilan Alisher Navoiy va Abduraxmon Jomiy tasvirlangan. Ushbu xassa o‘ziga xos ramziylikka ega bo‘lib,

xassa ushlagan kishi keksalik, ulug'lik hamda xassa yoki tayoqqa mo'jizalar yaratishga qodir quvvut manbai va raxnamolik ramzi sifatida qaralgan. Ushbu asarda asosan Jomiy va Navoiylarni jamiyatning manaviy raxnamosi ekanligini takidlamochi bo'lishgan. Darveshning xissasi shayxnikidan kichikroq bo'lgan va undan ko'proq himoya vositasi sifatida foydalanilgan. Kovush so'fiylarning asosiy poyafzali sanalgan. Asardagi so'fiylarni xirqa kiyimiga to'xtalib o'tamiz.

Hirqa kiyimi darveshning bosh belgisi hisoblangan. Miniatyura tasvirlaridan ko'rish mumkinki, hirqa jun matodan tikilgan chakmonga o'xshaydi. Manbalarda hirqa qanday ko'rinishda bo'lganligi aniq ko'rsatilmagan, lekin darvesh zikr tushish paytidagi jaxavaga tushib, hirqasini yirtib tashagan. Shuning uchun u ezozlangan. Negaki hirqa bu libosni kiygan kishining jazavasi borligini bildirgan. A.Shimmelning takidlashicha, al Xujiviriya ergashib "so'fiylar faqat yengi kalta emas, balki eng cheti, yoqalariga turli ramzlar tushirilgan liboslar ham kiyishgan."

Hirqa yengli yengsiz bo'lishi mumkin. Turli rangdagi yamoqlar uning asosiy belgisi xisoblanadi. Ammo miniatyura uslubining shartliligi tufayli rassom darveshning yozma adabiyotida ko'p gapirilgan hirqasidagi yamoqlarni va uning juldur kiyimlarini bor bo'yicha tasvirlamagan. o'rta asrlarda yaratilgan lug'atlarda bunday mato yamoqlari xastavona deb yuritilgan. Rassom miniatyura tasvirining umumiy obrazli bezakli tuzilmasiga putir yetkazmaslik maqsadida yamoqlarni chakmon rangiga nisbatan ochroq yoki to'qroq tus bilan ifodalagan. □

Darveshlar va shayxlar libosining bir-biridan farqi yana shundaki darveshlar chakmoni qisqaroq bo'lib butun tanani yopib turgan, yengi esa tor. Bu libos darveshlarning hali to'la "komillik"ka erishmaganidan darak beradi. Darveshlarning salla va belbog'i ham ularning qaysi tariqotga mansubligini anglatishda alohida o'rin tutgan. Sufiylarning belbog' boylab olgani ularning ustozlari buyurgan har qanday topshiriqni bajarishga tayyor ekanligini bildirgan. Darveshlarning belbog'idagi tugunlar soni va boshidagi sallasi ularning tegishli darajada o'z sohalarini egallaganligi va sufiylik hayotiga tayyor ekanligi belgisi sanalgan. Miniatyuralarda, odatda, belbog' rangli matodan arqon singari eshilgan va oldinda ikki tugun qilib bog'langan holda tasvirlangan.

1. Islom jamiyatida, ayniqsa, sufiylar hayotida liboslar o'zining rangli shakliga ko'ra muhim ahamiyat kasb etgan. O'rta asrlar musulmon sharqida kiyimlar ezgulik libosi, etiqod libosi deyilgan hamda "libos salbiy illatlar va o'ylaridan qaytaruvchi asosdir" degan qarash keng tarqalgan.
2. Xullas, Samo marosimini o'tkazish quyidagi bosqichda amalga oshirilganligini so'fiylar raqsi orqali anglab yetsa bo'ladi:
3. Ertalab yoki kechki payt so'fiylar davra qurib o'tirishgan.
4. So'fiylar diniy sanolar, duolar o'qishgan. Keyin jo'r bo'lib o'qishgan.
5. Musiqachilar kuy chalganlar.
6. Raqsga tushgan.
7. Ular raqs orqali jazavaga tushish holatida bo'lganlar.
8. Ushbu jazavadagi psixologik holatda darveshlar turli tovushlar chiqarib, qichqiriqlar qilgan.
9. Raqs so'ngida muraqaba hayotot ummoniga g'arq bo'lib, aslida boshqa dunyo ilohiy olam g'ami bilan mashg'ul bo'lganlar.

7- расм. “Сўфийлар рақси” асаридаги “Инсон ва Коинот” ўртасидаги

Munosabatlarning falsafiy g‘oyasi – **modeli.**

8- rasm. “Samo” marosimidagi “Inson va Koinot” o‘rtasidagimunosabatlarning
dinamik ko‘rinishi.

So‘fiylar “Ishroq” (arabcha porlash, jilva) murakkab psixologik holatida bo‘lgan. Ya’ni so‘fiylar zikr tushganlarida jazavaga tushishlarining so‘nggi davrida Parvardigorga yaqinlashgan (8-rasm).

Behzodning insoniy kechinmalar, dunyoviy va diniy falsafiy qarashlari liratik va romantik syujetlarda yorqin tasvirlangan.

O‘rta Sharq halqlari asriy orzu armonlarni aks ettiruvchi mavzularga o‘ziga xos yangilik kiritgan Behzod dunyoning fusunkor tarovati, xayotning boy va serqirraligini yorqin aks ettirib bera olgan. Behzod Tabriz maktab yutuqlarini ijodiy o‘zlashtirib, inson va tabiatni o‘zaro uyg‘unlikda, yorqin bo‘yoqlarda gavdalantirgan.

Behzod miniatyuralari umuminsoniy kechinmalar bilan yo‘g‘rilgan o‘tmish hodisalarini yorqin jonlantirgan, ajdodlarimiz turmush manzaralarini aks ettiruvchi ko‘hna tamaddun dunyosiga ochilgan yo‘ldir.

Behzod ijodiy tasviriy san’atdagi yuksak cho‘qqilardan biri sifatida Movaraunnaxr, Eron, Turkiya, Afg‘oniston, Pokiston musavvirlarini o‘ziga oxangrabodek jalb etib, ularni yangi ijodiy parvozlarga ilhomlantirib kelmoqda.

Kamoliddin Behzod “So‘fiylar raqsi” asariga qarab shunday xulosaga kelish mumkin. Diniy va falsafiy bilimlar bamisoli qushning ikki qanotidirki, qush shu ikki qanotsiz ucholmagandek, inson ham bu ikki ilmni bir-biriga uyg‘unlashtirmay, o‘rganmay turib, chin haqiqatni, hayot mohiyatini to‘liq anglab yetolmaydi va oliy kamolotga erisholmaydi.

“So‘fiylar raqsi”dan quyidagi falsafiy -psixologik xulosaga kelish mumkin.

Kamoliddin Behzod “So‘fiylar raqsi” orqali ajdodlarimizning ma’naviy merosi milliy va diniy an’analarini kelajak avlodga yetkazishga uringan va yoshlarni ruhiy poklanish orqali o‘zlikni anglashga chaqirgan.

U ajdodlarimiz Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, kabi ulug‘ va komil insonlarni ulug‘laydi va ulardan ibrat olishga chaqiradi.

Olamdagi har bir zarracha insonlar bilan uzviy bog‘liqligiga, ya’ni koinot bilan inson o‘rtasidagi munosabatlarning falsafiy va psixologik tomonilarini ko‘rsatadi. Bu orqali Kamoliddin Behzod insonlarni olamni qalb ko‘zi bilan ko‘rishga chaqiradi.

Sinov dunyosida har bir insonni komillikka intilishga, faqat ezgulik yo'lida yurishga da'vat etadi.

Asrlar davomida yig'ilgan ulkan ma'naviy boyliklarni, xususan, tasviriy san'at asarlarini o'ziga xos tomonlari, uslublari, g'oyasini, ularni yaratgan musavvirlarning muborak nomlarini unutmaslik lozim. Bu sababli bu noyob sarhad durdonalarini saqlash, falsafiy, estetik, psixologik, tarbiyaviy va boshqa tomonlarini yoshlarga o'rgatish va kelajak avlodlarga yetkazish har birimizning burchimizdir.

Bexzod hayoti va ijodini uzluksiz tizimda o'rganishda uning quyidagi shakllaridan yani maruza, suhbat, davra suxbatidagi tanlovlar, ko'rgazmalar, viktorinalar, uchrashuvlar o'tkazish, insholar yozish, sayohatlar uyushtirish, ertaliklar, kechalar o'tkazish, mustaqil ishlar va boshqalardan foydalanishi zarur deb hisoblaymiz.

Biroq naqqosh va musavvir Kamoliddin Bexzodning hayoti va ijodini o'rganish tizimini ishla chiqilishi haqida ularni shu tizimda tashkil etilishi uni ilmiy va metodik to'g'ri tashkil etishga imkon beradi. Shu bilan birga yoshlar o'z xalqining bebaho xazinasini, tarixi, madaniyatini bilib olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Musavvirning asarlari yoshlarimizni ahloqiy, mehnat, estetik ruhda tarbiyalashga samarali tasir ko'rsatadi.

II. BOB. KASB-HUNAR KOLLEJLARIDA TASVIRIY SAN'AT ASARLARINI BADIY TAHLIL QILISHGA O'RGATISHNING MAZMUNI, SHAKLI, VOSITALARI VA METODIKASI.

II.1. Tasviriy san'at asarlarini badiiy tahlil qilishga o'rgatishning mazmuni, shakli, vositalari va metodikasi.

Muammoli o'qitish texnologiyasi: Muammoli o'qitish bu takomillashgan o'qitish texnologiyasidir. Hozirgi oliy maktabdagi samarador o'qitish texnologiyasi – bu muammoli o'qitishdir. Uning vazifasi faol bilish jarayoniga undash va tafakkurda ilmiy-tadqiqot uslubini shakllantirishdir. Muammoli o'qitish ijodiy, faol shaxs tarbiyasi maqsadlariga mos keladi. Muammoli o'qitish jarayonida talabanning mustaqilligi o'qitishning reproduktiv shakllariga nisbatan tobora o'sib boradi.

KEYS texnologiyasi: Bilimlarni tayyor holda etkazish yoki echimlarni berish emas, balki uni qidirib topish va mustaqil izlashga o'rgatadi.

Keys-stadi haqida tushuncha, keys-stadi inglizcha sase - aniq vaziyat, stadi – ta'lim co'zlarining birikuvidan hosil qilingan bo'lib, aniq vaziyatlarni o'rganish, tahlil etish va ijtimoiy ahamiyatga ega natijalarga erishishga asoslangan ta'lim metodidir. Mazkur metod muammoli ta'lim metodidan farqli ravishda real vaziyatlarni o'rganish asosida aniq qarorlar qabul qilishga asoslanadi. Agar u o'quv jarayonida ma'lum bir maqsadga erishish yo'li sifatida qo'llanilsa, metod xarakteriga ega bo'ladi, biror bir jarayonni tadqiq etishda bosqichma-bosqich, ma'lum bir algoritm asosida amalga oshirilsa, texnologik jihatni o'zida aks ettiradi.

Keys-stadi metodining kelib chiqishi haqida ma'lumot: Ushbu metod dastlab 1920 yilda Garvard biznes maktabi ([*Harvard Business School*](#))da qo'llanilgan. Garvard biznes maktabining o'qituvchilari biznes yo'nalishidagi aspirantura bo'limi uchun to'g'ri keladigan darsliklarning mavjud emasligini tez anglaydilar. Ushbu masalani echish uchun biznes maktabining o'qituvchilari tomonidan qo'yilgan dastlabki qadam etakchi biznes amaliyotchilaridan intervyu olish hamda mana shu menedjerlarning faoliyati, unga ta'sir etuvchi omillar yuzasidan batafsil xisobot yozish bo'ldi. Ma'ruza tinglovchilarga u yoki bu tashkilot to'qnash kelgan konkret

vaziyat, ushbu vaziyatni tahlil etish va mustaqil ravishda yoki jamoa bo‘lib munozara tashkil etish asosida uning echimi topish tarzida taqdim etilar edi. Keyinchalik keys metodi biznes yo‘nalishidagi ta‘lim muassasalarida keng targ‘ib etilgan. Hozirgi kunda esa, kasbiy kompetentlikni rivojlantirish nuqtai nazaridan mazkur metod tarafdorlari ko‘payib bormoqda. XX-asrning 50 yillaridan boshlab biznes-keyslar G‘arbiy Evropa mamlakatlarida ommalashdi. Evropaning etakchi biznes maktablari [INSEAD](#), [LBS](#), [HEC](#), [LSE](#), [ESADE](#) va boshqalar keys-stadi metodi asosida dars beribgina qolmay, keyslarni yaratishda ham faol ishtirok eta boshlaydilar.

Keyslarning ko‘rinishi:



Nashr qilish uchun keys (o‘z ichiga grafiklar, jadvallar, diagrammalar, illyustratsiyalarni oladi).



Multimedia - keys (keyingi vaqtdagi eng ommaviy tus olgan keys lekin texnicheskogo jihozlanishga bog‘liq).



Video keys (o‘z ichiga film, audio i video materiallarni oladi. Uning salbiy tarafi – ko‘p marotaba ko‘rishning chegaralanganligi → ma‘lumotni noaniqligi yoki hatolar mavjudligi).

Keys – texnologiyalarning uslublari:

insidentlar uslubi	ish korrespondensiyasini saralash uslubi	o‘yinli loyihalash
vaziyatli rolikli o‘yinlar	bahslar uslubi	keys stadi

Insidentlar uslubi: Diqqat markazda ma'lumot olish jarayoni yotadi..



Maqsad — informatsiyani talabaning o'zi tomonidan izlashda – natijasi – zaruriy informatsiya bilan ishlashga o'rgatish, uni yig'ish, tasniflash va tahlil qilish. Bunday shakl ko'p vaqt talab qilsada, qaror qabul qilish jarayoni uchun amaliyotga ancha yaqinlashadi.

Ish korrespondensiyalarini: saralash metodi («basketmetod»)

Biron bir tashkilotga, vaziyat, mummoga tegishli xujjat va qog'ozlar bilan ishlashga asoslangan. Talaba uchun maqsad — kirish xujjatlari bilan ishlashga mas'ul inson pozitsiyani egallash va undan kelib chiqadigan bvrcha vazifalarni bajara olish.

Keyslar tipologiyasi:

Tipologik belgilari	Keys turi
Asosiy manbalari	1. Bevosita ob'ektda olib boriladigan 2. Ta'lim jarayondagi 3. Ilmiy-tadqiqotchilik
Syujet mavjudligi	1. Syujetli 2. Syujetsiz
Vaziyat bayonining vaqtdagi izchilligi	1. O'tmish va bugungi kunni bog'lash asosidagi keys 2. Avval bo'lib o'tgan voqelikka asoslangan keys 3. Istiqbolga yo'naltirilgan keys
Keys ob'ekti	1. Alohida ob'ektga yo'naltirilgan 2. Tashkiliy-institutsional 3. Ko'p ob'ektli
Materialni taqdim etish usuli	1. Hikoya 2. Esse 3. Tahliliy ma'lumot 4. Jurnalistik taftish 5. Hisobot 6. Ocherk 7. Faktlar majmui 8. Statistika materiallar majmui 9. Hujjatlar va ishlab chiqarish namunalari majmui

Keys-texnologiyasini amalga oshiruvchi o'qituvchi faoliyatining bosqichlari

- 1) tayyorgarlik bosqichi;
- 2) asosiy bosqich: keys-texnologiyasini amalga oshirish;
- 3) tahliliy, baholovchi bosqich.

Tayyorgarlik bosqichi: Auditoriyadan tashqarida bajariladigan murakkab ilmiy-tadqiqotchilik, uslubiy va konstruksiyalash faoliyatini o‘z ichiga olib, o‘qituvchi harakatlarining quyidagi izchilligi bilan bog‘liq bo‘ladi:

keysni yaratadi (agar tayyor keysdan foydalanilmasa);

ta‘lim texnologiyasini loyihalashtiradi va rejalashtiradi;

o‘quvchilarni tayyorlaydi, ularning keys bilan mustaqil ishlashi uchun o‘quv va uslubiy ta‘minotni ishlab chiqadi.

Keys – texnologiyasini loyihalashtirish: O‘qituvchi harakatlarining izchilligi, Ishchi dasturi asosida o‘quv mashg‘uloti shakli, turi va vaqtini belgilaydi (amaliy mashg‘ulot/mustaqil ish/ o‘quv amaliyoti).

O‘quv mashg‘uloti maqsadini oydinlashtiradi, o‘quv mashg‘ulotidan kutiladigan natijalar va pedagogik vazifalarni belgilaydi.

Ta‘limning optimal modelini (belgilangan vaqtda va qaror topgan sharoitlarda qo‘yilgan maqsadning amalga oshirilishini va prognoz qilinadigan o‘quv natijalariga erishishni kafolatlaydigan optimal ta‘lim metodlari, shakl va vositalari majmui)ni tanlaydi.

Keysning tekshirilishi va baholanishi: Yaratilgan keys ekspert tekshiruvidan va bahosidan o‘tishi kerak. Quyidagilar tekshirish usullari bo‘lishi mumkin:

1. Keys loyihasining korxonada xodimi tomonidan ko‘rib chiqilishi va unda bayon qilingan axborotning real vaziyatga muvofiq kelishi, shuningdek keltirilgan faktlar talqini va shu kabilarning tekshirilishi.

2. Ekspertlik bahosi va hamkasblar fikrlari, o‘qituvchi-keysologning keysning ta‘limdagi qimmatini xususidagi fikri, uni tekshirishning ikkinchi usulidir.

O‘quvchilar tomonidan keysni echish bosqichlari: Jahon tajribasi ko‘rsatishicha, agar o‘quvchilarning keysni hal etish texnologiyasi ikki bosqichdan iborat bo‘lsa, ta‘limiy maqsadlarga erishishda yanada ko‘proq **samaraga erishish mumkin:**

Birinchi bosqich – keysni hal etish bo‘yicha individual (auditoriyadan tashqari) ish.

Ikkinchi bosqich – keys bilan birgalikda jamoa bo‘lib (auditoriyada) ishlash.

Birinchi bosqich – keysni hal etish bo‘yicha individual ish

O‘quvchi mustaqil ravishda:

- 1) keys materiallari bilan tanishadi;
- 2) taqdim etilgan vaziyatni o‘rganadi, izohlaydi va asoslaydi;
- 3) muammo va muammo osti muammolarni ajratadi, vaziyatni tadqiq va tahlil qilish usullarini tanlaydi;
- 4) berilgan amaliy vaziyatni tahlil qiladi; ajratilgan muammoni hal etish usullari va vositalarini belgilaydi va asoslaydi;
- 5) taklif etiladigan qarorni amalga oshirish bo‘yicha tadbirlarni ishlab chiqadi.

Ikkinchi bosqich – keys bo‘yicha jamoa bo‘lib ishlash

O‘quvchilar kichik guruhlariga bo‘linib, birgalikda keys ustida ishlashadi:

- 1) guruh a‘zolarining vaziyat, asosiy muammolar va ularni hal etish yo‘llari haqidagi turli tasavvurlarini muvofiqlashtirishadi;
- 2) echimning taklif etilgan variantlarini muhokama qiladilar va baholaydilar, qo‘yilgan muammo nuqtai nazaridan ushbu vaziyat uchun eng maqbul variantni tanlashadi;
- 3) muammoli vaziyat echimiga olib keladigan tanlangan harakatlar yo‘lini amalga oshirishning aniq qadamba-qadam dasturini batafsil ishlab chiqadilar;
- 4) taqdimotga tayyorlanadilar va namoyish etiladigan materialni rasmiylashtirishadi.

Keysni echish natijalarini kichik guruhlar tomonidan taqdimotini o‘tkazish:

- 1) real vaziyat echimiga doir o‘z variantlarini taqdim etadilar;
- 2) tanlangan harakatlar yo‘lini izohlaydilar va echimning to‘g‘riligini asoslaydilar;
- 3) boshqa guruh a‘zolarining savollariga javob beradilar va o‘z takliflarini asoslaydilar.

II.2. Darslarda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning psixalogik asoslar.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da “Yosh avlodni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda xalqning boy milliy madaniy-tarixiy an’analariga, urf-odatlarini, hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalari ishlab chiqilib amaliyotga joriy etiladi”, - deb ta’kidlanadi.(1)

Darhaqiqat, bo‘lajak mutaxassislariga o‘z kasbi sirlarini puxta singdirish bilan bir qatorda ularning ma’naviy-axloqiy madaniyatini shakillantirish bugungi kunning dolzarb muammolaridan hisoblanadi.

Madaniy meros va yuksak badiiylik milliy an’analarini rivojlantirish, undan foydalanish, undan ijodiy amaliyot uslublarini joriy etish, tabiiy material bilan ishlash, insonlarda, ayniqsa yoshlarda, qunt, chidam, qat’iyat, tasviriy san’atning falsafiy, psixologik, qirralarini o‘rgatish maqsadga oliy o‘quv yurtlarida o‘quvchi-yoshlarni siyosiy-g‘oviy va estetik ruhda tarbiyalashda, go‘zallikni seza bilishga, tasviriy san’at asarlarini o‘rganishga, ulardan baxra olishga, izlanuvchanlik va yaratuvchanlik qobiliyatlarini oshirishga, ushbu san’atga bo‘lgan qiziqishni kuchaytirish, kasb tanlash, ko‘nikma va dunyoqarashini shakillantirishda muxim rol o‘ynaydi. Shu o‘rinda o‘zbek rassomlari asarlarini chuqur o‘rganish ulardan tegishli xulosa chiqarish muhim ahamiyatga ega.


Tohir Karimov o‘zbek tasviriy san’atga XX asr oxirlarida o‘ziga xos yechimga ega asarlari bilan kirib keldi. U ko‘plab timsollar va kompozitsiyalarini mahobatli san’at va dastgohli rangtasvirda yaratdi. Uning mustaqillik yillarida yaratgan “Oy” (1995) portret asari o‘ziga xos lirik asar hisoblanadi. (1-rasm)

Asarni g‘oyasi o‘zbek ayolini shirin hayoli orqali har bir inson foniy dunyoda o‘z orzu-umidlariga maqsadiga, visoliga va baxtiga erishish g‘oyasini falsafiy surati aks ettirilgan.

Qizning turg‘un holatda tasvirlangan bo‘lsada uning ko‘zlarini nurlari tinimsiz harakatda ekanligi. Uning ko‘z nurlari cheksiz koynotdagi o‘z yorini ya’ni yulduzini,

yorini kutayotgani ikki qo'l barmoqlari bir birini yupatayotgandek psixologik aks ettirilgan. (2-rasm)

Uning mayda terilgan sochlari majnun tol kabi egilib mayus xolatda aks ettirilgan. Qizning bir dona soch o'ramini ushlab erkalab turishi o'z muhabbatiga, o'z orzusiga qachon erishar ekan? Degan psixologik tushkunlik xolatda turgan xolda berilishi inson qalbini titratadi.



1-rasm. Tohir Karimovning "Oy" asardagi asosiy qismlari.

Асар совуқ колортда бажарилиши асарни олдига қўйилган ғоясини ечимини ечилишида ҳамда асардаги ғоялар тизимга бош ғоя уйғунлик берган. Суратдаги хаво ранг колортда бўлиб асосий ранг мовий ранг берилиш олам чексизлигини, оламда ҳар бир инсоннинг ўз орзу умидлари билан яшашини рамзий ифода этган.(3-расм)

Қизнинг либосини яшил олиниси она замин рамзида, яшил ранг исломий ранг эканлиги яъни қизнинг муслима аёл эканлигига ишора қилганлиги, она, аёл хуллас инсон борлиқнинг бир мўжизаси эканлигини рамзий акс эттирилган.

Қора рангли сочлар қизнинг ёш эканлиги ёшликда ҳар бир инсонда муҳаббат кўпригидан ўтишини ишора қилинган. Сочларнинг ҳар бир ўрамини инсонни бир кўркни эслатиб бу кунларни ўзига яраша мавҳум, қоронғиликдан эканлигини ҳамда қизни бир дона соч ўрамини эркалаб ушлаб туриши ўша қизнинг кунининг ойдан ёшлик кечасида турганини эслатади.

Асар контраст ранг орқали ҳаётни қарама-қаршиликдан яъни тун ва кундан, оқ ва қорадан яъни дунё зиддият қарама-қаршиликдан, эзгулик ва ёвузликдан иборатлигига фалсафий фикр берди. Палотнода қиз қорамтир оламдан ёруғлик сари интилаётганини динамик акс эттирилган.

Тасвирий санъатда портрет энг мураккаб жанрлардан биридир. Мусаввир кам деталлар орқали тасвирланувчи дунёсини очиб бериши сурат ва сийрат уйғунлиги ҳолатлар ва ўзига хос қонуниятларга амал қилиш лозим.

Ўзбек қизининг ўзига хос суратини яратар экан ундаги психологик ҳолатни чизик, ранг, шакллар орқали томошабинга етказа олган.

Yangi oy orqali asardagi qaxramonni yosh va go‘zalligini o‘z muhabbatiga sodiqlikligi, o‘z orzulariga yetishishini, erishishini psixologik xoltada aks ettirilgan ko‘z nurlari mayus lekin uzoqni yo‘nalganligini ko‘ramiz lekin ayol mag‘rur o‘z muhabbatiga sodiq qolishligini ko‘z qosh va lablar orqali aks ettirilgan. Qadimgi davrlarda asosan sharqda oyga xudo sifatida qaralganligi va sig‘inilganligi ma’lum. Qadimiy xalqlarda oy xudosi donolik belgisi xisoblangan va bu hol xozirda ham oyga donolik ramzi sifatida qarashni saqlab qolgan.

Bir narsaga e’tiborni qaratish lozimki, oy ramzi qadimdan ayollar belgisi sifatida ham belgilangan. Mesopotamiya, Misr, Eron, Xind kabi o‘lkalarda oy ramzi ayollik belgisi sifatida nom qozongan. Hindlarda xafta kunlari yetti samoviy jismlar nomi bilan qo‘shib aytiladi. Yakshanba «Odit’ya bora» ya’ni «quyosh kuni» deyilsa, dushanba «Soma bora»-«Oy kuni» deyiladi. (2)«Rigveda» diniy qarashlarida esa quyosh erkaklik ramzi, oy uning ayoli ramzi sifatida qadrlanadi va ikkisining nuri birlashuvi natijasida ilohiy ichimlik xosil bo‘ladi.(3)

XII asrga kelib ilmi nujumda ko‘plab yutuqlarga erishgan sharq xalqlarining yozma adabiyotida ham oy ramzini ayollik tarovati deya sifatlaganlarini ko‘rish mumkin. Ko‘pgina ilmiy va qomusiy kitoblarida oy ramzi poklik ramzi, «Islom» belgisi deb keltiriladi. Bu belgi yoki ramz asosan masjid va madrasalarning minoralariga ko‘yiladi Musavvir qiz suratini zebu-ziynatdan xoli tasvirleydi. Oddiygina har bir moviy libosda, qo‘llarida uzuklar, bilakuzuklar, bo‘ynida marjonlaru, tilla taqinchoqlar, qulog‘ida sirg‘a-baldoqlar tasvirlanmagan. Bu esa qizning sof muhabbatini va qalbi pokligini hamda unga boylik emas sof muhabbat kerakligini timsollari bilan aks ettiradi.(4)

Musavvir qizning suratini ishlar ekan uning qalbidagi dardni, muhabbatni, mayuslik o'ziga xos g'amgillik shamollari borligini xis qilgan. Kompozitsiya bosh qaxramoni teng tomonli uchburchakni eslatmoqda bu esa ten tomonli uchburchak ayriliqni bildiradi.

Musavvir yorug'lik kontrastida juda o'rinli foydalanib qizning mayus nozini ikkinchi yorug'likni oyda beradi. Uchunchi qolganlini qoramtir xira rangda aks etadi. Bu esa asardagi bosh g'oyani muhabbatni shior sifatida baland ko'taradi.

Ayniqsa sovuq ranglarning (ko'k, moviy, yashil, qora) o'zaro munosabatlarda juda nozik aks etadi.

Xulosa qilib aytgan san'at asarlarini o'rganar ekanmiz, ularni badiiy taxlil qilishda mantiqiy, psixologik va falsafiy talqiniga alohida e'tibor berish maqsadga muvofiqdir.

Bugungi kunda musaqil O'zbekiston taraqqiyotining bosh yo'li bu sharqona milliy ma'naviyat va jahon ilm-fani, madaniy yutuqlarini o'zlashtirishdir.

Shu o'rinda yurtboshimizning ushbu iborasi naqadar haqqoniyligini davr isbotlamoqda: butun dunyoga mashhur rus yozuvchisi Dostovskiyning "Dunyoni go'zallik qutqaradi" degan mashhur iborasini bir oz o'zgartirib "Kirib kelayotgan XXI asrda dunyoni madaniyat va ma'naviyat qutqaradi", - deb aytgan bo'lardim.

"Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"da ham "Yosh avlodni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashdan xalqning boy milliy madaniy-tarixiy an'analariga, urf-odatlariga hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalari ishlab chiqilib amaliyotga joriy etiladi", - deb ta'kidlanadi.[1]

Darhaqiqat, bo'lajak mutaxassislariga o'z kasbi sirlarini puxta singdirish bilan bir qatorda ularning ma'naviy-axloqiy madaniyatini shakllantirish bugungi kunning dolzarb muammolaridan hisoblanadi.

Tasviriy san'at asarlarini tomosha qilar ekansiz, ular unsiz so'zlaydi. Ularda bir dunyo ma'nolar yashiringanligiga guvoh bo'lasiz. Lekin ularni o'qish va anglash uchun inson badiiy estetik ma'lumotga ega bo'lishi kerak. Asarlarni tahlil qilish ma'lum mezonlar asosida amalga oshiriladi. Chunonchi, Isfaxon miniatyura

maktabiga mansub “Anor ushlagan o‘smir” asari o‘ziga xos ma’no va mazmunga egadir. (1-rasm).

Isfaxon miniatyura maktabi XVII asr musavvirlarini insonning ruhiy olami qiziqтира boshlashi manzaralar bilan boyitilgan portretlar, chiziq-larga e’tibor qaratilgan rasmlarni yaratishga olib kelgan. .[5]

Tasvirda tiz cho‘kib o‘tirgan va o‘ng qo‘lida qizil anorni ushlab shirin hayolga cho‘mib o‘tirgan o‘smirning psixologik holati aks ettirilgan. Miniatyura Isfaxon uslubida bajarilgan bo‘lib, boshqa miniatyura maktablaridan farq qiladi.

Musavvir o‘smirning psixologik xususiyatini chiziq, rang va shakllar orqali mohirona tasvirlagan.

Tizza bilan o‘tirgan o‘smir sharq kishisi va ayni vaqtda musulmon ekanligiga salla orkali ishora kilingan. Chap qo‘lini oyog‘iga tirab o‘tirishi o‘z kuchiga, o‘ziga ishonch ramzini bildiradi. O‘ng qo‘lida ko‘ksigacha ko‘tarilgan holda qizil anorni ushlab o‘tiribdi. O‘smir qo‘lidagi anor ezgulik, to‘qchilik, yetuklik va muhabbat ramzida ifodalangan. Musavvir o‘smirning yoshlik xususiyatini katta mohorat bilan aks ettirgan.

O‘smirlik yoshida bolalikdan kattalik holatiga ko‘chish jarayoni sodir bo‘lishi, o‘smirlarda psixologik jarayonlar keskin o‘zgarishi bilan aqliy faoliyatida ham burilishlar seziladi. Biogenetik o‘shning biologik omillari, ya’ni jinsiy yetilishning ikkilamchi alomatlari o‘sa boshlaydi, ovozning yo‘g‘onlashishi, mo‘ylov va soqol paydo bo‘lishi hamda orzu xohish, nozik tuyg‘u, sog‘inch iztirob, muhabbat kabi kechinmalar paydo bo‘lishini, o‘smir tasvirini makon bilan uyg‘unligini musavvir mohirona mukammal aks ettira olgan. Kiyimidagi qora rang (to‘q gunafsha rang) zaminida ritmik holda oq gullarni kontrast aks ettirilishida inson ruhiyatiga xos bo‘lgan ziddiyat va qarama-qarshilikni his etish mumkin. O‘smirning o‘tirgan holati orqali o‘z kuchiga ishonchini qizil belbog‘ va qo‘lini oyog‘iga tirab suyanib turishi ko‘rsatib turibdi. O‘ng qo‘lida to‘q qizil rangdagi anorni qalbi ustiga qo‘yib turishi anor, ya’ni muhabbat olamiga cho‘mib beixtiyor A1 nuqtadan A2 nuqtaga, ya’ni xayolot nuqtasiga tikilib turgan xolatini musavvir mohirona aks ettirgan. Ushbu tuyg‘uni har bir insonda bo‘lib o‘tishi yoki bo‘lib o‘tganligiga ishora qilinadi.

Muhabbat olami naqadar go‘zal olam ekanligiga ishonch bildiriladi. Ushbu tasviriy san‘at asarini ko‘zdan kechirar ekanmiz, yoshi ulug‘ insonlar yoshligini, ota-onasini, Vatan tuyg‘usini qalbdan his qiladi.(2-3-rasmlar).



1- rasm. Anor ushlagan o‘smir. Miniatyura. Isfaxon uslubi. XVII asr.

Muhabbat nima o‘zi? “Muhabbat, sevgi – biror shaxsga yoki kishilar guruhiga, g‘oyat yoki amaliy faoliyatga nisbatan intim va kuchli tuyg‘u. Nafratning aksi. Shaxs ichki dunyosining eng erkin ifodasi sifatida yuzaga keladi. Muhabbat tuyg‘usining ulug‘vorligi va murakkabligi shundaki, unda biologik va ma‘naviy, shaxsiy va ijtimoiy, intim va umumiy holatlar bamisolli bir nuqtaga to‘planadi. O‘rta Osiyo mutafakkirlari muxabbat inmonlar orasidagi, jumladan, erkak va ayol orasidagi muxabbatni yuksak munosabat deb tushanishgan. Ibn Sino muxabbat haqida maxsus ilmiy asar yozgani ma‘lum. Yusuf Xos Hojib nazarida, muxabbat mustahkam oilaviy turmush, ijtimoiy takomilning zaminidir. Lutfiy fikricha, muxabbat insonni qadrlash sadoqat va vafodorlik bilan chambarchas bog‘liq. Alisher Navoiy muxabbat 3 turga: erkak bilan ayol nikohida amalga oshidigan jinsiy muxabbatga, umuman insonlar o‘rtasidagi munosabatlarda namoyon bo‘ladigan muxabbatga, Allohga bo‘lgan

muxabbatga ajratadi. Yevropada muxabbat muhim ijtimoiy hissiyot sifatida tabiatni o'rganishga, shaxsning garmonik takomiliga xizmat qiluvchi kuch sifatida talqin qilindi. Z.Freyd muxabbatni fiziologik instinkt deb bildi va ota-onalik. Farzandlik mehri ham shu instinktning ayrim ko'rinishi deb hisobladi." [9. 181-182]

Asarni sinchkovlik bilan tomosha qilar ekansiz o'smirning shirin hayol surayotgan psixologik holati aks ettirilgan. Musavvir o'smirni ko'z nurini anorga emas balki, shirin hayol nuqtasiga qaratgan. Aslida o'smir avval anorga qarab turib beixtiyor shirin hayol nuqtasi A2 nuqtaga ko'chgan. Shu shirin hayol nuqtasida o'smir turli tuman hayollar olamiga кирган.

Anor – ezgulik, ko'payish, to'qchilik, to'kin-sochinlik va yetuklik. Qadimdan uylarni bezaganda serhosil anor daraxtini namoyonda tasvirlangan. Bu tasvir xonani bezab juda ko'rkamlik bergan, insonlar ruxini ko'targan. Naqqoshlarda serhosil anor daraxti tasviri orqali insonlar xonodonda har doim to'qchilik bo'lsin, ular o'ylagan niyatlarga yetishsin deb tilak qilganlar, ya'ni insonlarga yaxshi niyat qilganlar. Shuning uchun ham xalqimiz "yaxshi niyat, yorti mol" deb bejiz aytmaganlar. Musavvirlar anor ushlagan ayollarni baxt-sodat, muxabbat, ko'payish ramzida juda ko'p tasvirlab kelganlar.

A² nuqta hayol surish nuqtasi bo'lib, hayol surish jarayonida fikr yuritish nuqtasi xarakatda bo'ladi. Hayol surish nuqtasi markazga xarakat qiladi. (3-rasm) Hayol surish nuqtasi markazga yetib borganda hayol surish to'xtaydi. Inson


qandaydir ko‘tarinki ruxiy kuch oladi. Natijada hayol jarayonida erishgan maqsadni amalga oshirishini orzu umid qiladi.

Ushbu ezgu umid bilan ma‘lum davrgacha o‘smir ko‘tarinki ruxda fikr qilib yuradi.

Asarni tahlil qilayotgan tomoshabin: hayol nima? uning qanaqa turlari borligi haqidagi bilimlarga ega bo‘lishi lozim.

A-ko‘rinish nuqtasi, A1-anor (hayolni boshlang‘ich nuqtasi), A2-asosiy hayol jarayon nuqtasi.

Hayol – nson tomonidan idrok etilgan tasavvur va hayoliy holatlarning vujudga kelishidan iborat psixik faoliyatdir. Xayol inson ongida vujudga kelib borliqning qiyofasini o‘zgartirishga yo‘nalgan bo‘ladi. Hayolning tasavvur hayoli, ijodiy hayol, ixtiyorsiz va ixtiyoriy xayol kabi turlari mavjud. 4-rasm [4. 72] Amalga oshmaydigan va ko‘pincha amalga oshirib bo‘lmaydigan ish-harakat rejalarini belgilaydigan hayolni nafaol hayol deb yuritiladi.




4-rasm. Hayol turlari

Ixtiyorsiz hayolda oldindan belgilangan maqsad bo'lmaydi, bunda iroda faol ishtirok qilmaydi. Asarda o'smir ixtiyorsiz xayolga, ya'ni shirin hayollar olamidagi ruhiy xolatga cho'mgani aks ettirilgan. [6]

“Shirin hayol surish – muayan bir narsaga qaratilmagan muayyan bir sistemaga ega bo'lmagan hayol prsessidir. Shirin hayol botgan vaqtda turli obrazlar ko'z o'ngidan birin-ketin betartib o'ta boradi. Bu tasavvurlar jarayonini tafakkur tartibga solmaydi. Orzularda bo'lgan kabi, shirin hayol surishda ham. Asosan, o'zimiz xush ko'rgan obrazlar paydo bo'ladi. Shu sababli, ko'pincha, shirin hayol surish odamiga huzur baxsh etadi.” [7.22-222]

Endi asardagi rang, chiziq va shakllardan yashiringan xikmat durdonalarini o'rganamiz.[8.] Asardagi o'smir milliy liboslarining ramziy ma'nolari quyidagilardan iborat: (7 rasmlar)



7-rasm. Klaster usulida o‘smir liboslarining ramziy ma’nolari.

Qizil belbog‘ – qizil belbog‘ o‘smirni kuch quvvatga to‘lganini, jinsiy yetilganligi va balog‘at yoshiga to‘lganligini bildiradi.

Suratda o‘smirning belbog‘iga ilingan yo‘lsimon mayda qizil va qora chiziqlar, bilan bezalgan oq sochiq tasvirlangan. Oq sochiq poklik ramzi bo‘lib, o‘smirni ruhan va jismonan pokiza ekanligiga ishora qiladi. Sochiqdagi qizil va qora chiziqlar hayot ezgulik hamda yovuzlikdan iboratligi, yana kun-tun va kunduzdan iboratliginini ifodalaydi.

Ichki yashil kiyimi – o‘smirni musulmon ekanligi hamda oyog‘ kiyimi ham yashil rangda berilishi islomiy yo‘lda yurganini anglatadi.

Boshidagi oq rangli salla o‘smirni musulmon va poklik ramzida tasvirlagan. Musulmonchilikda salla o‘rash sunnat hisoblanib, u o‘lim ramzidir. Foni dunyoda tug‘ilish bor ekan, o‘lim muqarrardir. Ya’ni bu sinov dunyoda inson faqat ezgulik yo‘lida yurishini anglatadi. Chunki bu dunyoda inson yaxshi yoki yomon amallarning javobini oladi.

O‘smir qiyofasidagi statik va dinamik xolatlarni qiyofa ilmi orqali taxlil qilamiz: o‘smirlikdagi sabza urib chiqqan soqol va mo‘ylovi uning balog‘at yoshiga yetishi, jinsiy yetilganligini bildiradi. Qora rangli soqoli yoshlikni eslatadi; kichik hajmdagi lablari, o‘smirlik yoshlikning go‘zal davri ekanligini eslatadi; kamon ko‘rinishidagi ikki qoshning lochin qushday aks ettirilishi o‘smirni shirin orzu-istaklar, parvoziy xayollarga berilishini bildiradi; suratda o‘smir burni chiroyli, nafis chizilgan. Chiroyli burun yuzga go‘zallik baxsh etib turibdi; o‘smirning ko‘zlari bir nuqtaga qaratilgan bo‘lib, xayolga cho‘mib, shirin orzular, muhabbat nashidasini tortayotganini ham dinamik ham statik holatda aks ettirgan; chap qo‘lni oyoq ustiga tirab turishi, o‘smir o‘z kuchiga, irodasiga va ishonchiga suyanishini bildiradi; o‘ng qo‘lida anor ushlab turganligi statik holat bo‘lib, har bir inson muhabbatini qalbida o‘tkazadi va his qiladi, degan ma‘noni ifodalaydi. [3]

Xulosa qilib aytganda, Sharqning mashhur musavviri Maoniy “Tabiatni aynan tasvirlash bu sarhadning nihoyasi emas, agar kimki rasmlardagi har bir chiziqqa jon bag‘ishlay olar ekan, san‘at kalitini u egallagan bo‘ladi”, deb bejiz aytmagan.

Musavvir shunday ufq topganlarki, unga intilgan sari yangi-yangi go‘zallik olamini ochganlar, voqeyliklarni, chiziq, shakl va rang orqali unsiz ovozda xalqqa yetkaza olganlar.

Shunday ekan, asrlar davomida yig‘ilgan ulkan madaniy boyliklarni, xususan. tasviriy san‘at asarlarining o‘ziga xos tomonlari, uslublari, ularni yaratgan musavvirlarning muborak nomlarini unutishga xaqqimiz yo‘q. Shu sababli bu noyob sarhad durdonalarini saqlash, falsafiy, estetik, psixologik, tarbiyaviy boshqa tomonlarini yoshlarga o‘rgatish va kelajak avlodga yetkazish har birimizning Vatan oldidagi burchimizdir.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da “Yosh avlodni ma‘naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda xalqning boy milliy madaniy-tarixiy an‘analariga, urf-odatlarini, hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalari ishlab chiqilib amaliyotga joriy etiladi”, - deb ta‘kidlanadi

Darhaqiqat, bo'lajak mutaxassislariga o'z kasbi sirlarini puxta singdirish bilan bir qatorda ularning ma'naviy-axloqiy madaniyatini shakillantirish bugungi kunning dolzarb muammolaridan hisoblanadi.

Madaniy meros va yuksak badiiylik milliy an'analarini rivojlantirish, undan foydalanish, undan ijodiy amaliyot uslublarini joriy etish, tabiiy material bilan ishlash, insonlarda, ayniqsa yoshlarda, qunt, chidam, qat'iyat, tasviriy san'atning falsafiy, psixologik, qirralarini o'rgatish maqsadga oliy o'quv yurtlarida o'quvchi-yoshlarni siyosiy-g'oviy va estetik ruhda tarbiyalashda, go'zallikni seza bilishga, tasviriy san'at asarlarini o'rganishga, ulardan baxra olishga, izlanuvchanlik va yaratuvchanlik qobiliyatlarini oshirishga, ushbu san'atga bo'lgan qiziqishni kuchaytirish, kasb tanlash, ko'nikma va dunyoqarashini shakillantirishda muxim rol o'ynaydi. SHu o'rinda o'zbek rassomlari asarlarini chuqur o'rganish ulardan tegishli xulosa chiqarish muhim ahamiyatga ega.

Tohir Karimov o'zbek tasviriy san'atga XX asr oxirlarida o'ziga xos echimga ega asarlari bilan kirib keldi. U ko'plab timsollar va kompozitsiyalarini mahobatli san'at va dastgohli rangtasvirda yaratdi. Uning mustaqillik yillarida yaratgan "Oy" (1995) portret asari o'ziga xos lirik asar hisoblanadi. (9-rasm)

Asarni g'oyasi o'zbek ayolini shirin hayoli orqali har bir inson foniy dunyoda o'z orzu-umidlariga maqsadiga, visoliga va baxtiga erishish g'oyasini falsafiy surati aks ettirilgan.

Qizning turg'un holatda tasvirlangan bo'lsada uning ko'zlarini nurlari tinimsiz harakatda ekanligi. Uning ko'z nurlari cheksiz koinotdagi o'z yorini ya'ni yulduzini, yorini kutayotgani ikki qo'l barmoqlari bir birini yupatayotgandek psixologik aks ettirilgan. (10-rasm)

Uning mayda terilgan sochlari majnun tol kabi egilib mayus xolatda aks ettirilgan. Qizning bir dona soch o'ramini ushlab erkalab turishi o'z muhabbatiga, o'z orzusiga qachon erishar ekan? Degan psixologik tushkunlik xolatda turgan xolda berilishi inson qalbini titratadi.

Asar sovuq kolortda bajarilishi asarni oldiga qo'yilgan g'oyasini echimini echilishida hamda asardagi g'oyalar tizimga bosh g'oya uyg'unlik bergan. Suratdagi

xavo rang kolortda bo'lib asosiy rang moviy rang berilish olam cheksizligini, olamda har bir insonning o'z orzu umidlari bilan yashashini ramziy ifoda etgan.(11-rasm)

Tasviriy san'atda portret eng murakkab janrlardan biridir. Musavvir kam detallar orqali tasvirlanuvchi dunyosini ochib berishi surat va siyrat uyg'unligi xolatlar va o'ziga xos qonuniyatlarga amal qilish lozim.

O'zbek qizining o'ziga xos suratini yaratar ekan undagi psixologik xolatni chiziq, rang, shakllar orqali tomoshabinga etkaza olgan.

Yangi oy orqali asardagi qaxramonni yosh va go'zalligini o'z muhabbatiga sodiqlikligi, o'z orzulariga etishishsini, erishishini psixologik xolatida aks ettirilgan ko'z nurlari mayus lekin uzoqni yo'nalganligini ko'ramiz lekin ayol mag'rur o'z muhabbatiga sodiq qolishligini ko'z qosh va lablar orqali aks ettirilgan. Qadimgi davrlarda asosan sharqda oyga xudo sifatida qaralganligi va sig'inilganligi ma'lum. Qadimiy xalqlarda oy xudosi donolik belgisi xisoblangan va bu hol hozirda ham oyga donolik ramzi sifatida qarashni saqlab qolgan.

Bir narsaga e'tiborni qaratish lozimki, oy ramzi qadimdan ayollar belgisi sifatida ham belgilangan. Mesopotamiya, Misr, Eron, Xind kabi o'lkalarda oy ramzi ayollik belgisi sifatida nom qozongan. Hindlarda xafta kunlari etti samoviy jismlar nomi bilan qo'shib aytiladi. Yakshanba «Odit'ya bora» ya'ni «quyosh kuni» deyilsa, dushanba «Soma bora»-«Oy kuni» deyiladi. (2) «Rigveda» diniy qarashlarida esa quyosh erkaklik ramzi, oy uning ayoli ramzi sifatida qadrlanadi va ikkisining nuri birlashuvi natijasida ilohiy ichimlik xosil bo'ladi. (3)

XII asrga kelib ilmi nujumda ko'plab yutuqlarga erishgan sharq xalqlarining yozma adabiyotida ham oy ramzini ayollik tarovati deya sifatlaganlarini ko'rish mumkin. Ko'pgina ilmiy va qomusiy kitoblarida oy ramzi poklik ramzi, «Islom» belgisi deb keltiriladi. Bu belgi yoki ramz asosan masjid va madrasalarning minoralariga ko'yiladi.

Musavvir qiz suratini zebu-ziyatdan xoli tasvirlaydi. Oddiygina har bir moviy libosda, qo'llarida uzuklar, bilakuzuklar, bo'ynida marjonlaru, tilla taqinchoqlar, qulog'ida sirg'a-baldoqlar tasvirlanmagan. Bu esa qizning sof muhabbatini va qalbi pokligini hamda unga boylik emas sof muhabbat kerakligini timsollari bilan aks ettiradi.(4)

Musavvir qizning suratini ishlar ekan uning qalbidagi dardni, muhabbatni, mayuslik o'ziga xos g'amgillik shamollari borligini xis qilgan. Kompozitsiya bosh qaxramoni teng tomonli uchburchakni eslatmoqda bu esa ten tomonli uchburchak ayriliqni bildiradi.

Musavvir yorug'lik kontrastida juda o'rinli foydalanib qizning mayus nozini ikkinchi yorug'likni oyda beradi. Uchunchi qolganlini qoramtir xira rangda aks etadi. Bu esa asardagi bosh g'oyani muhabbatni shior sifatida baland ko'taradi.

Ayniqsa sovuq ranglarning (ko'k, moviy, yashil, qora) o'zaro munosabatlarda juda nozik aks etadi.

Xulosa qilib aytgan san'at asarlarini o'rganar ekanmiz, ularni badiiy taxlil qilishda mantiqiy, psixologik va falsafiy talqiniga alohida e'tibor berish maqsadga muvofiqdir.

Tasviriy san'at asarlarini tomosha qilar ekansiz, ular unsiz so'zlaydi. Ularda bir dunyo ma'nolar yashiringanligiga guvoh bo'lasiz. Lekin ularni o'qish va anglash uchun inson badiiy estetik ma'lumotga ega bo'lishi kerak. Asarlarni tahlil qilish ma'lum mezonlar asosida amalga oshiriladi. CHunonchi, Isfaxon miniatyura maktabiga mansub "Anor ushlagan o'smir" asari o'ziga xos ma'no va mazmunga egadir. (12-rasm).

Tizza bilan o'tirgan o'smir sharq kishisi va ayni vaqtda musulmon ekanligiga salla orkali ishora kilingan. Chap qo'lini oyog'iga tirab o'tirishi o'z kuchiga, o'ziga ishonch ramzini bildiradi. O'ng qo'lida ko'ksigacha ko'tarilgan holda qizil anorni ushlab o'tiribdi. O'smir qo'lidagi anor ezgulik, to'qchilik, etuklik va muhabbat ramzida ifodalangan. Musavvir o'smirning yoshlik xususiyatini katta mohorat bilan aks ettirgan.

O'smirlik yoshida bolalikdan kattalik holatiga ko'chish jarayoni sodir bo'lishi, o'smirlarda psixologik jarayonlar keskin o'zgarishi bilan aqliy faoliyatida ham burilishlar seziladi. Biogenetik o'sishning biologik omillari, ya'ni jinsiy etilishning ikkilamchi alomatlari o'sa boshlaydi, ovozning yo'g'onlashishi, mo'ylov va soqol paydo bo'lishi hamda orzu hohish, nozik tuyg'u, sog'inch iztirob, muhabbat kabi kechinmalar paydo bo'lishini, o'smir tasvirini makon bilan uyg'unligini musavvir

mohirona mukammal aks ettira olgan. O‘smirning o‘tirgan holati orqali o‘z kuchiga ishonchini qizil belbog‘ va qo‘lini oyog‘iga tirab suyanib turishi ko‘rsatib turibdi. O‘ng qo‘lida to‘q qizil rangdagi anorni qalbi ustiga qo‘yib turishi anor, ya‘ni muhabbat olamiga cho‘mib beixtiyor A1 nuqtadan A2 nuqtaga, ya‘ni xayolot nuqtasiga tikilib turgan xolatini musavvir mohirona aks ettirgan. Ushbu tuyg‘uni har bir insonda bo‘lib o‘tishi yoki bo‘lib o‘tganligiga ishora qilinadi. Muhabbat olami naqadar go‘zal olam ekanligiga ishonch bildiriladi. Ushbu tasviriy san‘at asarini ko‘zdan kechirar ekanmiz, yoshi ulug‘ insonlar yoshligini, ota-onasini, Vatan tuyg‘usini qalbdan his qiladi. (13-14-rasmlar).

Anorga qarab turib beixtiyor shirin hayol nuqtasi A2 nuqtaga ko‘chgan. SHu shirin hayol nuqtasida o‘smir turli tuman hayollar olamiga kirgan.

Anor – ezgulik, ko‘payish, to‘qchilik, to‘kin-sochinlik va etuklik. Qadimdan uylarni bezaganda serhosil anor daraxtini namoyonda tasvirlangan. Bu tasvir xonani bezab juda ko‘rkamlik bergan, insonlar ruxini ko‘targan. Naqqoshlarda serhosil anor daraxti tasviri orqali insonlar xonodonida har doim to‘qchilik bo‘lsin, ular o‘ylagan niyatlarga etishsin deb tilak qilganlar, ya‘ni insonlarga yaxxshi niyat qilganlar. SHuning uchun ham xalqimiz “yaxshi niyat, yorti mol” deb bejiz aytmaganlar. Musavvirlar anor ushlagan ayollarni baxt-sodat, muxabbat, ko‘payish ramzida juda ko‘p tasvirlab kelganlar.

Ixtiyorsiz hayolda oldindan belgilangan maqsad bo‘lmaydi, bunda iroda faol ishtirok qilmaydi. Asarda o‘smir ixtiyorsiz xayolga, ya‘ni shirin hayollar olamidagi ruhiy xolatga cho‘mgani aks ettirilgan.“Shirin hayol surish – muayan bir narsaga qaratilmagan muayyan bir sistemaga ega bo‘lmagan hayol prsessidir. Shirin hayolga botgan vaqtda turli obrazlar ko‘z o‘ngidan birin-ketin betartib o‘ta boradi. Bu tasavvurlar jarayonini tafakkur tartibga solmaydi. Qizil belbog‘ – qizil belbog‘ o‘smirni kuch quvvatga to‘lganini, jinsiy etilganligi va balog‘at yoshiga to‘lganligini bildiradi.

Ichki yashil kiyimi – o‘smirni musulmon ekanligi hamda oyog‘ kiyimi ham yashil rangda berilishi islomiy yo‘lda yurganini anglatadi.

To‘q gunafsha rangdagi ustki kiyim - ushbu kiyimning qoraligi ramziy ma’noda bu foniy dunyo qorong‘ulikdan iboratdir, ushbu qorong‘ilikka qancha kirib borsang shuncha hech nimani tushunib bo‘lmasligini anglashni bildiradi. Ustki kiyimidagi qora zamini ustiga ritmik takrorlangan 3,4,5 va olti yaproqli oygullar tasvirlangan. Bu bilan olam go‘zalligiga ishora qilingan.

Asardagi ranglar o‘ziga xos ramziy ma’noga ega. Anor va belbog‘ning qizil rangi etuklik, muhabbat, tiriklik va boshqa ma’nolarga ega. Sallaning oq rangi poklik, ruhiy poklik ramzi. Ichki kiyimi yashil rangda bo‘lib, u inson islom diniga mansub ekanligini bildiradi. O‘smirni islomiy ekanligiga oyoq kiyimi orqali ham ishora qilingan. Sabza mayin soqoli yoshlik, kuchlilik ramzida ifodalangan. Belga qistirilgan sochiqning oqligi ham poklik ramzi bo‘lib, naqsh chiziqlarining qora va qizil ranglari bamisoli tun va kunni, hayotning notekisligini, foniy dunyo yovuzlik va ezgulikdan iborat ekanligini anglatadi.

Xulosa qilib aytganda, Sharqning mashhur musavviri Maoniy “Tabiatni aynan tasvirlash bu sarhadning nihoyasi emas, agar kimki rasmlardagi har bir chiziqqa jon bag‘ishlay olar ekan, san’at kalitini u egallagan bo‘ladi, deb bejiz aytmagan.

Musavvir shunday ufq topganlarki, unga intilgan sari yangi-yangi go‘zallik olamini ochganlar, voqeyliklarni, chiziq, shakl va rang orqali unsiz ovozda xalqqa etkaza olganlar.

Shunday ekan, asrlar davomida yig‘ilgan ulkan madaniy boyliklarni, xususan. tasviriy san’at asarlarining o‘ziga xos tomonlari, uslublari, ularni yaratgan musavvirlarning muborak nomlarini unutishga xaqqimiz yo‘q. Shu sababli bu noyob sarhad durdonalarini saqlash, falsafiy, estetik, psixologik, tarbiyaviy boshqa tomonlarini yoshlarga o‘rgatish va kelajak avlodga etkazish har birimizning Vatan oldidagi burchimizdir.

III. BOB. DARSLARNI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA TASVIRIY SAN'AT ASARLARINI BADIY TAHLIL QILISHGA O'RGATISH BO'YICHA TAJRIBA SINOV ISHLARI.

III.1. Mavzuga oid tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va o'tkazish metodikasi.

Tasviriy san'at asarlarini badiiy tahlil qilishning mantiqiy asoslari (Zahiriddin Muhammad Bobur portreti misolida)

Kim yor anga ilm tolibi ilm kerak,

O'rgangali ilm tolibi ilm kerak.

Men tolibi ilmu tolibi ilm yo 'q,

Men bormen ilm tolibi, ilm kerak.

Zahriddin Muhammad Bobur (1483-1530).

To'liq ismi; Zahriddin Muhammad Bobur. U 1483 yil Andijonda tug'ilgan, o'sha davrda uning otasi Umar SHayx Mirzo Andijon hokimi edi. Otasidan 11 yoshida etim qoladi va 12 yoshida taxtga o'tiradi. U Saroy muhitida tarbiyalandi, o'qidi, yoshligidan ilmga, she'riyatga berildi. Dovyurakligi, jasurligi, epchilligi tufayli uni «Bobur», ya'ni «Yo'lbars» deb atadilar.

Ustozi va piri: Xoja mavlonoyi Qozi Abdulloh.

Asarlari: Boburning eng yirik asari «Boburnoma»dir, u qomusiy xarakterdagi asar bo'lib, tarix, geografiya, botanika va boshqa fan sohalariga oid ma'lumotlar berilgan. Bundan tashqari Bobur o'g'li Humoyun Mirzoga atab musulmonchilik qoidalari va qonunshunoslikka bag'ishlangan, davlatni boshqarish va zakot qonun-qoidalari to'g'risida «Mubayyin», arab alifbosining islohiga oid «Xatti Boburiy», aruz vazni va qofiyaga oid «Mufassal», «Risolai volidiya», «E'tiqodiya» kabi asarlar yaratgan.

Zahriddin Muhammad Bobur atoqli davlat arbobi, iste'dodli shoir, adib, tarixchi, olim, shu bilan birga tarjimondir.

Bobur keng va chuqur bilimli hamda ajoyib iste'dodli, zamonasining ulkan madaniyat arboblari bilan bo'lib, u doimo ilm-fan, san'at va adabiyot ahllari bilan

yaqindan aloqa tutar, ularga homiylik qilib, turli ilmiy, adabiy suhbatlar va munozaralar uyushtirar edi.

Bobur o‘zbek klassik adabiyotining, ayniqsa Alisher Navoiyning boy adabiy merosini o‘rganadi. O‘zbek va fors-tojik tillarida yangi, original she‘rlar yaratadi. Bizgacha Boburning ikkita devoni etib kelgan.

Bobur lirikasi o‘zining hayotiyliigi, taraqqiyparvarona fikrlarni ifodalashi, badiiy soddaligi, jo‘shqinligi va til boyligi bilan o‘zbek va dunyoviy adabiyotining taraqqiyotiga katta hissa bo‘lib qo‘shildi. G‘azal, ruboiy va tuyuq Bobur lirikasining eng xarakterli janrlardir. Hayotga muhabbat, yor va diyor sevgisi, hijron va g‘urbat dardi, badbinlik va tarkidunyochilik ustidan, kulish yaxshi hulq – odob va ma‘rifat targ‘ibi – Bobur lirikasining tematik doirasinin tashkil etadi. Bobur Lutfiy, Navoiy, Hayom va Hofiz kabi ustoz shoirlarning an‘analarini davom ettiradi, rivojlantiradi, naziralar va muxammaslar yaratadi.

Boburning eng yirik asari bo‘lgan «Boburnoma» uni butun dunyoga tanitdi. «Boburnoma» tarixiy – badiiy asar bo‘lishi bilan birga o‘zbek prozasining qimmatli yodgorligi hamdir. SHu bilan birga, geografiya, etnografiya, tabiiyot, xalq tibbiyoti va boshqa ilmiy sohalar bo‘yicha ham qimmatli ma‘lumotlar beruvchi asar, o‘zbek adabiy tilining muhim yodgorligidir.

Bobur 1503-1504 yillarda «Xatti Boburiy» deb nomlangan alifbe yaratadi. Alifbening vujudga kelishi va tilga muvofiqlashtirish g‘oyasining tug‘ulishi katta progressiv hodisa edi. Uning muhim tomoni shundaki, alifbeda unlilar «zerzabar» tarzidagi belgilar bilan emas, balki maxsus harflar shaklida berilgan.

Bobur ilm – fanining turli sohalarga doir bir necha qimmatli asarlar yaratdi. Shulardan biri aruzga doir «mufassal» («Muxtasar») deb nomlangan risolasidir. Risola aruz nazaryasini boyitadi va to‘ldiradi.

«Mubayyin» asari qonunshunoslikka bag‘ishlangan bo‘lib, masnaviy formasida yozilgan.

Bobur, shuningdek, bizgacha etib kelmagan musiqa nazariyasi va harbiy san‘atga oid asarlar muallifidir. Bobur o‘z davrining barkamol farzandi va qomusiy aqlga ega shaxs bo‘lgan. U o‘zining g‘ayrat – shijoati, o‘tkir aqli, nozik ta‘bi,

fvoliyatining ko'pqirraliligi bilan kishini hayratda qoldiradi. Qisqasi, Bobur jahon adabiyotining ulug' namoyondalaridan biridir. U o'lmas asarlari bilan juda ko'p xalqlarga manzur bo'ldi, badiiy adabiyot taraqqiyotiga samarali ta'sir etdi.

Shoh va shoir o'z yurtidan yiroqda hayot kechirganligi bois uning hayotida Vatan tuyg'usi, Vatan sog'inchi, Vatan qayg'usi ustunlik qildi, u umr bo'yi o'z vataniga talpinib yashadi. Bobur ijodida haqiqiy barkamol inson timsoli madh etiladi, ulug'lanadi. U doimo inson qadr-qimmatini yuqori tutadi, insonlarni kamtarlikka, halolikka, poklikka undaydi. Bobur ijodiy merosidan ta'lim jarayonida foydalanish orqali, avvalo talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash mumkin hamda ularda insonparvarlik, kamtarlik, imon-e'tiqod kabi axloqiy fazilatlar yuksaltiriladi. Bobur ilm – fanining turli sohalarga doir bir necha qimmatli asarlar yaratdi. Shulardan biri aruzga doir «mufassal» («Muxtasar») deb nomlangan risolasidir. Risola aruz nazaryasini boyitadi va to'ldiradi. «Mubayyin» asari qonunshunoslikka bag'ishlangan bo'lib, masnaviy formasida yozilgan. Bobur, shuningdek, bizgacha etib kelmagan musiqa nazariyasi va harbiy san'atga oid asarlar muallifidir. Bobur o'z davrining barkamol farzandi va qomusiy aqlga ega shaxs bo'lgan. U o'zining g'ayrat – shijoati, o'tkir aqli, nozik ta'bi, fvoliyatining ko'pqirraliligi bilan kishini hayratda qoldiradi. Qisqasi, Bobur jahon adabiyotining ulug' namoyondalaridan biridir. U o'lmas asarlari bilan juda ko'p xalqlarga manzur bo'ldi, badiiy adabiyot taraqqiyotiga samarali ta'sir etdi.

III.2 Tajriba-sinov ishlarining natijasi va ularning tahlili

Tasviriy san'at o'qitish metodikasi fanida zamonaviy texnologiyalardan foydalanib dars o'tish mazmuni va metodikasini takomillashtirishda mazkur sohaga oid nazariy bilimlari va amaliy ko'nikmalarini aniqlab olish muxum hisoblanadi. Mazkur tadqiqotning tajriba sinov ishlari ikki bosqichda amalga oshirildi.

Birinchi bosqich (2014-2015 yillar)da tasviriy san'at o'qitish metodikasi fanida zamonaviy texnologiyalardan foydalanilish axvoli o'rganildi. Tasviriy san'atni o'qitish metodikasi fanini darslari, fan o'qituvchilari va talabalar bilan suxbatlar, uchrashuvlar anketa so'rovlari o'tkazildi. Respublikamizning ko'zga ko'ringan olimlar, pedagoglar, psixoloklar fizoliklar, sotsiologlar va rahbarlar bilan fikirlashildi, bir necha shahar va viloyat oliy o'qui yurtida talabalar o'rganildi hamda tajriba sinov maydonchasi sifatida aniqlab olindi. Yangi dasturlar loyihasi ishlab chiqildi, amalda qo'llanildi turli xil anketa so'rovnomalari, darslarda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish yo'llari ishlab chiqildi. Kasb-hunar kollejarida o'rganilib, taqqoslanib, tegishli xulosalar qilindi.

Ikkinchi bosqich. (2015-2016 yillar)da tajriba sinov ishlari yakunlandi, bunda oliy o'quv yurtlarida tasviriy san'at o'qitish metodikasi fanini zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish dastur loyixasi natija sifatida o'rganildi, ishlab chiqilgan uslubiy tavsiyada mezonlar ishlab chiqildi. Tadqiqot ishlarini jamlash, olingan natijalar umumlashtirildi va tahlil etildi xulosalar hamda takliflar berildi.

Tadqiqodni olib borish rejasi quyidagi jadval ko'rinishida tuzib olindi.

Ta'lim muassasasi	O'tkazilishi	O'tkazilgan o'quv yillari	O'tkazilish bosqichlari			Talabalar soni			O'qituvchilar soni	TDPU "San'at" fakul-teti dekani	Mas'ul o'qituvchi
			Dastlabki tajriba	Oraliq tajriba	Yakuniy tajriba	Nazorat guruhi	Tajriba guruhi	Jami			

	Qarshi san'at kolleji	2015 – 2016	2011 - 2012	2012 - 2013	2013 – 2014	19	18	37	4	K.Gulyamov	R.Rajabov
--	------------------------------	--------------------	--------------------	--------------------	--------------------	-----------	-----------	-----------	----------	-------------------	------------------

Tajriba-sinov ishlari o'tkazish maqsadida 2013-2014 yillarda Qarshi shahridagi Qarshi D.U. Talabalari qarshi madaniyat kolleji talabalari jalb etildi.

Malumki dars samaradorligiga erishish uchun oliy o'quv yurtlarida o'qtiladigan fanlarning o'qituvchilar tomonidan yuksak mahorat va talabalarning qiziqishlarini hisobga olgan holda bajarilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Sababi bilim olishga bo'lgan intilish talabalarning tanlagan kasbiga bo'lgan qiziqishi bilan uyg'unlashib ketadi. SHunga ko'ra o'quvchining kelajakda tasviriy san'at fanining ytuk mutaxassislaridan bo'lib etishishlariga asosiy etibor qaratiladi.

Bugungi kunda ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishga bo'lgan ehtiyojlar, talablar va qiziqishlarning toboro ortib borishi sabablari, xususan Tasviriy san'at o'qitish metodikasi fanini o'qitishda zamonaviy pedagogigik texnologiyalardan foydalanish borasida o'qituvchilar va talabalar bilan suxbatlar, uchrashuvlar anketa so'rovlari o'tkazildi. o'tkazilgan so'rovnomalar natijalari. (3.1.jadval)da

3.1.jadval

№	Motivlar	Javoblar	
		O'quvchilar soni	% xisobida
1.	Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida dars o'tilsa o'qituvchi uchun ham o'quvchi uchun ham qulayliklar bo'lishi bilan birga yuqori dars samaradorligiga erishilishi takidlandi.	76	23,5

2.	Bugungi kunda jaxon tajribalariga bo'lgan intilish, Qiziqish, va ko'p jixatdan dunyo qarash va onging o'sib borishi bilan ham bog'liqligi.	64	21,4
3.	O'zbekistonda jaxon andozalariga mos bo'lgan talim tizimini yaratishga bo'lgan talab va ehtiyojlar	87	29,0
4.	Zamonaviy pedagogik texnologiyalaridan foydalanib darslarni tashkil etish yoshlarimiz ongi va duyog'arashining shakillanishi uchun zarurdir	52	17,3
J a m i			

Pedagogika oliy o'quv yurtiga qabul qilingan talabalarning tasviriy san'at sirlarini puxta mukammal darajada egallashiga ko'plab omillar sabab bo'ladi. Barcha soxalarda bo'lgani kabi, hozirgi kunda axborot texnologiyalari ta'lim jarayoniga jadallik bilan kirib bormoqda, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan qo'llagan holda axborot vositalaridan foydalanib darslarni tashkil etish, talabalarning darslarni yaxshi o'zlashtirishlari uchun muxumdur.

XULOSA

O‘zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichida yuksak badiiy ma’lumotlarga ega, jahon va O‘zbek tasviriy san’atidan xabardor, har tomonlama komil insonni shakillantirishda ta’lim-tarbiyaning o‘rni muhimdir. Zero aynan mustaqillik yillarida ma’naviy-madaniy meros, milliy-tarixiy qadriyatlarga ta’lim va tarbiya vositasida yangicha yondashish uchun qulay sharoit vujudga keldi. Bu o‘z navbatida, tasviriy san’atni o‘qitishning mazmuni va metodikasini takomillashtirish uchun o‘ziga xos zamin vazifasini o‘taydi.

Kasb-hunar kollejlarida tasviriy san’at o‘qitish metodikasi fanining zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishda quyidagilarga etibor berish lozimligi belgilandi.

-Tasviriy san’at asrlarini badiiy tahlil qilishning falsafiy va psixologik tomonlariga oid tele ko‘rsatuvlar, radeo ishtirishlarni hamda ilmiy maqolalarni muntazam ravishda tashkil etish ilmiy metodik adabiyotlarni nashir qilish va zamonaviy elletron ko‘rinishlarida darslik o‘quv qo‘llanmalar yaratish;

-Tasviriy san’at o‘qitish metodikasini takomillashtirish maqsadida ellektron ko‘rgazmaviy qurollar majmuasini tayyorlash;

-Oliy ta’lim tizimida zamonaviy pedagogik texnologiyalaridan foydalanishning shaki, vositalari va metodlari tizimidan foydalanish zarur;

-Darslarda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning psixologik tomonlarini rivojlantirish zarur.

SHuningdek, darslarda tasviriy san’at o‘qitish metodikasini takomillashtirish, tartibli reja asosida muntazam zamonaviy pedagogik texnologiyalaridan foydalanib amalga oshirish lozim.

Pedagogika oliy o‘quv yurtlarida olib boriladigan tasviriy san’at mashg‘ulotlari tasviriy san’at turlarining asosi sifatida talabalarning «rangtasvir», «qalamtasvir», «haykaltaroshlik», «miniyatura», «kompozitsiya», «naqqoshlik», kabi fanlarni puxta o‘rganishiga zamin yaratadi. SHu sababli ham tasviriy san’at o‘qitish metodikasini takomillashtirish pedagogikaning muhim masalalari sirasiga kiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT QONUNLARI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: O'zbekiston, 2007. -40 b.
2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. // Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –Toshkent: SHarq, 1997. 34-63 b
3. «Ta'lim to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonuni. // Barkamol

2. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI I.A.KARIMOV ASRLARI

1. Karimov I.A. Yangicha fikirlash va yangicha ishlash zamon talabi. V j . –T.: O'zbekiston, 1997. -381 b. 350-351 b.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: SHarq, 1997. -65 b.
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. –T.: “O'zbekiston”, 2000. -352 b.
3. Karimov I.A. YUksak ma'naviyat – engiomas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008. -176 b.
4. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. –T.: O'zbekiston, 2009. -56 b.

5. 3. ASOSIY ADABIYOTLAR

1. Abdullaev N.A. San'at tarixi. 1 tom. –T.: O'qituvchi, 1987. -10-18 b., -42-51 b.
2. Abdullaev N.A. Sanat tarixi. II tom. –T.: San'at, 2001. -192 b.
3. Abdirasilov S., Tolipov N. Rangtasvir. –T.: O`MKHTM, BILIM, 2005.-160 b.
4. Abdirasilov S., B.Boymetov, Tolipov N. Tasviriy san'at. –T ILM ZIYO, 2010. - 176. d.
5. Azizxo'jaeva N.N. O'quv jarayonining samaradorligini oshirishda pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma. –T.: 2007 y.
6. Azimov I.M. O'zbekiston naqshu nigorlari. [RospisiUzbekistonda]. –T.: g'afur g'ulom, 1987. 5-10-142 b.

7. Abu Nosir Farobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: A. Qdiriy. 1993. – 223 b.- 17 -75 b.
8. Bulatov M.S. Geometricheskaya garmonizatsiya v arxetekturı sredney Azii IX-XV vv. –M.: Nauka, 1978.-380 b.
9. Bulatov S.S. O‘zbek xalq amaliy bezak san’ati. –T.: Mehnat, 1991.142-150-152-154-155-157-159-164 b.
10. Bulatov S. Ganchkorlik, naqqoshlik va yog‘och o‘ymakorligiga oid atamalar izohli lug‘ati. –T.: Mehnat, 1991.-80 b.
11. Bulatov S., Ashurova M. Amaliy san’at qisqacha lug‘at. –T.: Qomnslar bosh tahririyati, 1992. -48 b.
12. Bulatov S., Tolipov N. Go‘zallik falsafasi. –T.: Fan va texnologiya, 2008. -128 b.
13. Bakushinskiy A.V. Xudojestvennoe tvarchestvo i vospitanie.- Issledovanie i stati.- M.: Sov. xudojnik, 1981.

6. DISSERTATSIYA VA DISSERTATSIYA AVTOREFERATI

1. Abdullaev S.F. Teoriticheskie i metodicheskie osnovy ispolzovaniya narodnogo dekorativno-prikladnogo iskusstva Uzbekistana v podgotovke uchiteley izobrazitelnogo iskusstva. Dissertatsiya kandidata pedagogicheskix nauk.-M.: 1989.-155 b.

10. Foydalanilgan, internet saytlari

www.dissercat.com

www.prtss.uz

www.lex.uz

www.ziyonet.uz

Ilova. Tayanch so'zlar

1	Abstraksionizm-techenie v iskusstve 20 veka, prinsipialno otkazavsheesya ot izobrajeniya realnyx jivopisi, skulpture i grafike.	Abstraksionizm – XX asrlarda mavjud bo'lgan san'at yo'nalishi, va grafikada haqiqiy jismlar tasvirdan vos kechgan san'at turi.	Abstractionism – art of the 20 th century, principle refused to image of real objects in painting, sculpture and lirawing.
2	Avangardizm-Sovokupnost eksperimentalnyx, modernistskix, neobychnyx, poiskovyx nachinaniy v iskusstve 20 veka.	Avangardizm – XX asr san'ati yo'nalishining yangi, g'ayritabiiy, izlanishlari boshlanishi.	Avant-garde-refers to people or works that are experimental or innovative, particulariy with respect to artand culture in 20 th century
3	Avtogravyura-gravyura, v kotoroy pechatnuyu formu na dereve, linoleume ili metalle vьpolnyaet avtor.	Avtogravyura – gravyuraning bu turida muallif san'at asarini linoleum, daraxt yoki metal materiallarida ishlaydi.	Auto engraving-engraving etching, author performs the printing plate on wood, linoleum or metal.
4	Avtolitografiya-vid litografii, pri kotoroy izobrajenie na kamen nanosit avtor. V otliche ot rsproduksionnoy litografii, gde original vosproizvoditsya na kamne masterom ili mexanicheski.	Avtolitografiya – litografiyaning bu turida muallif o'z asarini toshga o'yib ishlaydi. Oddiy litografiyada tasvir toshga usta tomonidan yoki mexanik tarzda ishlanadi.	Auto-view-lithography, kind of lithography, the author causes the image on the stone. Unlike lithography of reproduction, where the original is played on a stone by craftsman or mechanically.
5	Avtoportret-(grech. - sam) – Portret, v kotorom xudojnik izobrajaet samogo sebya. V etom sluchae sozdatel proizvedeniya i model sovmeщayutsya v odnom litse.	Avtoportret – (grek – o'zim) muallif o'z tasvirini ishlaydigan san'at asari. Bu jarayonda asar muallif va ishlanadigan model bir obyektida gavdalanadi.	Self Portrait- (Greek-himself)-a portrait in which the artist depicts himself. This case, the creator of the product and the model are combined in one person.
6	Akademizm-sledovanie vneshnim priznakam klassicheskogo iskusstva. Syujety: antichnaya mifologiya, Bibliya, drevnyaya istoriya. Raznovidnostneoklassitsizm.	Akademizm – klassik san'at turinibg qoidalariga amal qilish. Qismlari: qadimiy afsona, Injil, qadimgi tarix. Turlari: neoklassitsizm	Academicism-following external characteristics of classical art. Stories: ancient mythology, the Bible, ancient history. Variety-neoclassicism.
7	Akvarel-Kraska, dlya izgotovleniya kotoroy ispolzuetsya vodorostvorimye svyazuushie, naprimer gummjarabik. Obychno akvarel rastvoryastsya vodoy do prozrachnogo sostoyaniya i nanositsya na bumagu shirokimi pyatnami, izvestnyimi pod nazvaniem razmyvkami.	Akvarel-tayyorlashda suvda parchalanish hususiyatiga ega modda, masalan gummjarablik moddasidan aqddalanilgan bo'yoq turi. Odatda akvarel suv bilan loriganda suv kabi holatga keladi va mo'yqalamda uzun dog'lar yordamida ishlanadi.	Watercolors-Paint, which is used for the manufacture of water-soluble binders such gum Arabian. Usually water soluble to water-color transparent statc and applied to the paper wide spots, known as dithering.
8	Akril – Sinteticheskiy krasitel, vьpьrnye primenennyy v 1940-e gody soedinivshiy svoystva masla i akvareli Mojet byt ispolzovan dlya polucheniya raznyx effektiv-ot prozrachnyx razmyvok do pastoznyx mazkov.	Akril –sintetik bo'yoq, birinchi marotaba 1940 yilda yog' va akvarelning qo'shib ishlanishi natijasida hosil bo'lgan. Ko'p hollarda turli xil – tiniq ranglardan to mo'yqalam zarbalaridan hosil bo'lgan Natijalarni olish uchun qo'llaniladi.	Acrylic-A tupe of rapid drying and versatile synthetic paint that is an especially popular with artists working today. The term is also used as a generic term for any synthetic paint medium. Acrylics have good adhesive and elastic properties
9	Akropol-(grech. akropolis, ot akros – verxnii i polis - gorod),	Akropol – (grekcha akros-ustki, polis-shaxar),	Acropolis-(Grek acropolis, from akros-upper

	vozvyshennaya i ukreplennaya chast drevnegrecheskogo goroda kretsost, ubejische na sluchay voyny. Na Akropole obychno nachodilis xramy bojestvapokroviteley dannogo goroda.	Qadimgi grek shaxrining baland va mustahkam qismi, qasr, urush vaqtlarida boshpana, Akropolda shu shaxarning barcha ibodatxona va cherkovlari joylashgan.	and polis-city), elevated and fortified part of the ancient city, a fortress, a refuge in case of war. Usually on the Acropolis were temples patron deities of the city.
10	Alla prima – (lat. – s pervogo raza) – xudojestvennyy priem v jivopisi, sostoyashiy v tom, chto kartina prishetsya bez predvaritelnyx propisok i podmalevka.	Alla prima-(lot-birinchi urinishdan) tasviriy san’atdagi rassomlik usuli, mohiyati shundaki, ishlanadigan tasvir hech bir yordamchi chizmalarsiz ishlanadi.	Alla prima-(Latin-the first time)- technique in which the final surface of a painting is completed in one sitting, without under painting.
11	Animalizm-(lat. - jivotnoe) – izobrazhenie jivotnyx v iskusstve.	Animalizm – (lot-jonivor, hayvonot) tasviriy san’atda hayvonlar, jonvorlarni ishlash.	Animalism-Lat.-The animal)-pictures of animals in art.
12	Anfas – sm. Fas	Anfas – qar. Fas	Fullface – see Fas
13	Applikatsiya-(lat. – prikladnyanie) – izobrazhenie, sostavlennoe iz raznotsvetnyx kuskov bumagi ili tkani, priklenennyx ili prishityx k bkmage, xolstu i.t.d.A. nazывaetsya i sam sposob ispolneniya etix proizvedeniy.	Aplikatsiya – (lot-qo’yish, yopishtirish) qog’zda yoki matoda rangli qog’oz yoki mato bo’lakchalari bilan yopishtirib yoki tikib ishlanadigan san’at turi.	Application-(Latin-attachment)- image made up of colorful pieces of paper or faric, glued or sewn to the paper, canvas, etc. A method called execution of the works.